

## O'qituvchi nimani o'ylaydi?



Darsliklar haqida ming bora gapiramiz, tahlil qilamiz, maqolalar yozamiz. Ammo ming afsuski, yangi chiqayotgan darsliklarda xatolar kamayish o'rniga ko'payib boraveradi. O'quvchi uchun yengillik bo'lgani sezilmaydi. Faqat darslikning yili va nashri o'zgaradi, xolos.

4-bet

## Har qanday noqonuniy pul yig'implari taqiqlanadi, ammo...

Sinfxonalarni ta'mirlash yoki o'quv yili yakunida boshqa maqsadlarda o'quvchilardan pul yig'ish asossiz. Qaysidir maktabda bunday holat aniqlansa, qonun doirasida tegishli chora ko'riladi.



5-bet

## Bekobodagi maktab sport zali qachon ta'mirlanadi?

Oradan hech qancha vaqt o'tmay, "Telegram" orqali direktor Gulnora Qo'shmatovadan xat keldi. Unda yozishicha, muammo hal bo'lgan.

15-bet

Kuch — bilim va tafakkurda

# Marifat

1931-yildan chiqib boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2019-yil 12-iyun, chorshanba № 45 (9214)

Xalq ziyolilari gazetasi



Pedagog xodimlarga maxsus ustama to'g'ri belgilanganmi?

8-9-betlar



Dolzarb mavzu

## Yuridik kollej bitiruvchilari universitetga test sinovlarisiz kira oladimi?

Farzandi o'qishga tayyorlanayotgan ota-onalarning aksari abituriyentlardan ko'ra ko'proq hayajonlanadi. Shuning uchun ham biror yangilik eshitgudek bo'lsa, ma'lumotni so'rab surishtirib, oxiriga yetadi. Yaqinda ana shunday ota-onalardan biri tahririyatimizga murojaat qilib, farzandi yuridik kollejlardan birini tamomlayotgani, xabarlariga ko'ra, yuridik kollejlarda bitiruvchilari Toshkent davlat yuridik universitetiga imtihonsiz o'qishga kirishi mumkinligi nechog'lik rost ekanini aniqlashtirib berishni so'radi.

Umidvor onaning hayajoni menga ham o'tdi, chog'i, bir zamonlar yuridik kollejini tugatgan tanishlarim, jyanlarimni esga ola boshladim. Ha-da, haliyam o'mini topolmay yurganlar balki sal-pal tayyorlansa, oliy o'quv yurtiga kirib, oliy ma'lumotli bo'lib qolarmidi? Xullas, bu haqda aniq va batafsil ma'lumot olish uchun shu soha mutaxassislariga murojaat qildik.

7-bet

## O'ZBEKISTON PREZIDENTINING SHHT VA OHICHK SAMMITLARIDA ISHTIROKIGA DOIR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti joriy yil 13-14-iyun kunlari Bishkek shahrida bo'lib o'tadigan Shanxay hamkorlik tashkiloti hamda 15-iyun kuni Dushanbe shahrida bo'lib o'tadigan Osiyoda hamkorlik va ishonch choralarini bo'yicha kengashning navbatdagi sammitlarida ishtirok etadi.

SHHTga a'zo davlatlar rahbarlari kengashi majlisining kun tartibidan ustuvor yo'nalishlarda, jumladan, siyosat, iqtisodiyot va xavfsizlik sohalarida ko'p tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish va mustahkamlash masalalari o'rin olgan. Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga ega dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

Sammit yakunida Bishkek deklaratsiyasi qabul qilinishi, shuningdek, tashkilot doirasidagi ko'p qirrali sheriklikni, jumladan, hududlararo aloqalarni, raqamlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ekologiya, turizm, sport va boshqa sohalaridagi hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan hujjatlar imzolanishi rejalashtirilgan.

Osiyoda hamkorlik va ishonch choralarini bo'yicha kengashning beshinchi sammiti "Xavfsiz va yanada ravnaq topgan mintaqasi sari yagona yondashuv" mavzusi ostida o'tadi. Unda kengashga a'zo va kuzatuvchi mamlakatlardan, shuningdek, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar vakillaridan iborat 30 dan ziyod delegatsiya ishtirok etadi.

O'zbekiston Prezidenti Bishkek va Dushanbe sammitlaridagi ishtiroki doirasida xorijiy delegatsiyalar rahbarlari bilan qator ikki tomonlama uchrashuvlar ham o'tkazildi.

O'ZA

**Bizni internetda ham kuzating!**

[www.marifat.uz](http://www.marifat.uz)

[/marifat.uz](https://www.facebook.com/marifat.uz)

[@marifatziyo](https://www.instagram.com/marifatziyo)

## O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AHOISIGA AXBOROT-KUTUBXONA XIZMATI KO'RSATISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH TO'G'RSIDA

Respublikada ijtimoiy-iqtisodiy sohani isloh qilishning hozirgi sharoitida axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirishning maqsad va vazifalari mamlakatda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga va xalqaro amaliyotga mos bo'lishi zarur. Shu munosabat bilan fuqarolarning axborotdan erkin foydalanish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqlarini, shu jumladan, milliy qadriyatlar va jahon madaniyati, amaliy va fundamental bilimlardan bahramand bo'lishini ta'minlaydigan, aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatishning sifat jihatidan yangi tizimini yaratish, kutubxonalarda saqlanayotgan milliy madaniy merosni asrab-avaylash va boyitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish ustuvor vazifaga aylanmoqda.

Bu esa axborot-kutubxona faoliyatiga, kutubxonlarga xizmat ko'rsatish, fondlarni to'ldirish va saqlash, kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish, ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy faoliyat, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va rag'batlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirishga jiddiy ta'sir ko'rsatish imkonini beradi.

Aholiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish, axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini rivojlantirish maqsadida:

1. Quyidagilar aholiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni sifat jihatidan yanada rivojlantirish sohasidagi asosiy vazifalar etib belgilansin:

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi va zamonaviy umumjahon tendensiyalarini hisobga olgan holda axborot-kutubxona faoliyatini isloh qilish;

aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatish bo'yicha ijtimoiy kafolatlarni sifatli ta'minlash hamda zamonaviy talablarni hisobga olgan holda axborot-kutubxona muassasalarini rivojlantirish maqsadida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;

hududlarda aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatishni barqaror rivojlantirishga ko'maklashish;

axborot-kutubxona muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, shu jumladan, yangi bino va inshootlarni qurish, mavjud binolarni rekonstruksiya qilish, ularni zamonaviy uskunalarni ta'minlash;

kutubxona sohasida davlat-xususiy

shariklikni, xususiy va elektron (virtual) kutubxonalar tarmog'ini rivojlantirish;

kutubxonalar faoliyatining samaradorligini va foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish (shu jumladan, pullik xizmat ko'rsatish) tezkorligini oshirish uchun elektron kitoblar tarqatishga ixtisoslashgan internet-resurslar bilan hamkorlikni kengaytirish;

axborot-kutubxona muassasalari xavfsizligini hamda milliy va jahon madaniy merosining bir qismi sifatida axborot-kutubxona fondlarining yaxshi saqlanishini ta'minlash;

jamiyatning axborot madaniyatini, tariximizga va milliy madaniyatga qiziqishini shakllantirish va kuchaytirish, mutolaa madaniyatini oshirish va targ'ib qilish;

axborot-kutubxona muassasalarini malakali mutaxassislar bilan ta'minlash.

2. Quyidagilar:

a) 2019—2024-yillarda O'zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish konsepsiyasi 1-ilovaga muvofiq;

b) 2019—2024-yillarda O'zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi 2-ilovaga muvofiq;

v) Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi — axborot-resurs markazining tashkiliy tuzilmasi 3-ilovaga muvofiq;

g) Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi — axborot-resurs markazining (keyingi o'rinlarda — Milliy kutubxona) xodimlar umumiy cheklangan soni 227 nafardan iborat boshqaruv apparati tuzilmasi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Milliy kutubxona direktoriga zarur hollarda Milliy kutubxona boshqaruv apparati tuzilmasiga xodimlarning belgilangan umumiy soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida o'zgartirishlar kiritish huquqi berilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (keyingi o'rinlarda — Agentlik), O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Moliya vazirligining Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasiga tushadigan mablag'larning ikki foizini Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi — axborot-resurs markazi huzuridagi budjetdan tashqari Axborot-kutubxona muassasalarini rivojlantirish jamg'armasiga (keyingi o'rinlarda —

Jamg'arma) ajratish to'g'risidagi taklifi ma'qullansin.

4. Agentlik, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va Moliya vazirligining:

Milliy kutubxona qoshida 186 ta tuman(shahar) axborot-kutubxona markazlarini tashkil etish, shuningdek, umumta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining tugatilayotgan axborot-resurs markazlarini tugatish;

umumta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining tugatilayotgan axborot-resurs markazlarining kitob fondlari va shtat birliklarini yangidan tashkil qilinayotgan tuman(shahar) axborot-kutubxona markazlariga berish;

axborot-resurs markazlarini tugatishda umumta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining kutubxonalarini amaldagi normativlarga muvofiq tegishli kitob fondi va shtat birliklari bilan birga saqlab qolish to'g'risidagi takliflari ma'qullansin.

5. Quyidagilar yangi tashkil etilayotgan tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlarining asosiy vazifalari etib belgilansin:

aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatish uchun sifat jihatidan yangi va qulay shart-sharoitlar yaratish, zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ularning ilmiy, ta'lim, axborot va madaniy ehtiyojlarini qondirish;

aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga ijtimoiy moslashuv va reabilitatsiya, mustaqil ta'lim olish va muloqot doirasini kengaytirish vositasi sifatida axborotdan foydalanish imkoniyatlarini yaratish;

foydalanuvchilarga har qanday (bosma, multimedia va raqamli) tashuvchilarda, shu jumladan, Internet tarmog'ida sifatli axborot manbalaridan foydalanish imkoniyatini yaratish;

o'z axborot-resurslarini yaratish va ularni sifatli to'ldirib borish orqali kutubxonlarga an'anaviy xizmat ko'rsatish usulidan ularni zamonaviy axborot-kutubxona xizmatlari bilan ta'minlashga o'tish;

aholiga axborot-kutubxona xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha masofadan xizmatlar ko'rsatishni rivojlantirish va modernizatsiya qilish.

6. Agentlik:

bir oy muddatda tuman(shahar) axborot-kutubxona markazlarini joylashtirish hamda ularni kompyuter texnikasi va boshqa turdagi orgtexnika, mebel, shu

jumladan, maxsus mebel, shuningdek, tegishli kutubxona uskunalari bilan jihozlash bo'yicha talablarni ishlab chiqsin, bunda imkoniyati cheklangan shaxslarga xizmat ko'rsatish uchun o'quv zallarini maxsus kompyuter jihozlari va boshqa qo'shimcha vositalar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratsin;

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda tuman(shahar) axborot-kutubxona markazlarining Internet tarmog'iga ulanishini va ular uchun Milliy kutubxona elektron resurslaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlasin;

ikki oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bilan birgalikda axborot-kutubxona markazlari faoliyatining reglamentini ishlab chiqsin va tasdiqlasin, bunda aholiga kuni uzaytirilgan tartibda xizmat ko'rsatilishini ko'zda tutsin;

aholiga ko'rsatiladigan pullik xizmatlar(til o'rgatish, kompyuter kurslarini tashkil etish, matnli, audio va videomateriallar nusxalarini yaratish, shuningdek, boshqa kutubxona xizmatlari) ro'yxatini kengaytirish orqali axborot-kutubxona markazlarining budjetdan tashqari daromadlarini oshirish choralarini ko'rsin.

7. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari:

a) Agentlik tomonidan ishlab chiqilgan tuman(shahar) axborot-kutubxona markazlarini joylashtirish va jihozlash talablarini hisobga olgan holda:

ikki oy muddatda tumanlar (shaharlar) markazlarida tuman(shahar) axborot-kutubxona markazlarini joylashtirish va ularning to'laqonli faoliyat yuritishi uchun binolarni belgilangan tartibda ajratsin;

ajratilgan binolarni kapital ta'mirlashni ta'minlasin, bunda tuman(shahar) axborot-kutubxona markazlarining o'quv zallarida va boshqa umumiy foydalaniladigan xonalarda imkoniyati cheklangan shaxslar to'siqsiz foydalanishi uchun barcha zarur sharoitlarni yaratsin, shuningdek, ularni zarur uskuna va texnika bilan jihozlasin;

b) tuman(shahar) axborot-kutubxona markazlariga tutash hududlarni obodonlashtirish bo'yicha tegishli ishlarni amalga oshirsin va ushbu markazlarni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash bo'yicha zarur choralarini ko'rsin;

(Davomi 3-betda.)

## O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AHOLISIGA AXBOROT-KUTUBXONA XIZMATI KO'RSATISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH TO'G'RSIDA

(Davomi. Boshi 2-betda.)

v) umumta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining axborot-resurs markazlarini tugatish natijasida ishdan bo'shagan xodimlarni belgilangan tartibda ishga joylashtirish choralarini ko'rsin.

### 8. Belgilansinki:

Milliy kutubxonaning qo'shimcha shtat birliklarini saqlash xarajatlari 2019-yilda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti xarajatlari parametrda ijtimoiy sohaga mo'ljallangan budjet mablag'lari hisobidan qoplanadi, 2020-yildan boshlab esa O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarida ko'zda tutiladi;

tuman(shahar) axborot-kutubxona markazlarini saqlash xarajatlari tumanlar va shaharlar mahalliy budjetlarida umumta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining tugatilayotgan axborot-resurs markazlarini saqlash uchun ko'zda tutilgan mablag'lar, shuningdek, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi;

yangi tashkil etiladigan axborot-kutubxona markazlarini kadrlar bilan to'ldirish birinchi navbatda umumta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining tugatilayotgan axborot-resurs markazlarida faoliyat

ko'rsatayotgan malakali kadrlar hisobiga amalga oshiriladi;

tuman(shahar) axborot-kutubxona markazlari binolarini kapital ta'mirlash hamda ularni zamonaviy uskuna va texnikalar bilan jihozlashni moliyalashtirish umumta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining tugatilayotgan axborot-resurs markazlarining maqbullashtirilayotgan budjet ajratmalari, tuman va shaharlar mahalliy budjetlarining prognozni oshirib bajarishdan olindigan daromadlari, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari, shuningdek, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi;

tuman(shahar) axborot-kutubxona markazlari kutubxona fondlarini to'ldirish, shuningdek, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar ushbu maqsadlar uchun ajratiladigan budjet mablag'lari, Jamg'arma mablag'lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar doirasida amalga oshiriladi.

9. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi Madaniyat vazirligi hamda Agentlik bilan birgalikda kutubxonachilik ishi sohasida mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni o'rganish asosida sohaga ixtisoslashgan oliy o'quv yurtlariga "Kutubxona-axborot

faoliyati" yo'nalishi bo'yicha o'qishga qabul kvotalari yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining:

vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan davlat organlari va boshqa tashkilotlarda, shu jumladan, harbiy qismlarda idoraviy kutubxonalarini tashkil qilish (takomillashtirish);

idoraviy kutubxonalarining kitob fondini va moddiy-texnika bazasini yaratish, yangilash va to'ldirishni ushbu maqsadlar uchun davlat organlariga budjetdan ajratilgan mablag'lar, shuningdek, budjetdan tashqari mablag'lar va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirish;

Agentlik iaklflari asosida idoraviy kutubxonalarining kitob fondini yangilash va to'ldirish uchun zarur nashrlar ro'yxatini har yili shakllantirish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin.

11. Agentlik va O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 21-mayni Kutubxonachilar kuni deb belgilash to'g'risidagi taklifi

ma'qullansin, bunda kutubxonachilarni ko'p yillik halol mehnati va axborot-kutubxona sohasini rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun davlat mukofotlari bilan taqdirlash va rag'batlantirish ko'zda tutilsin.

Agentlik bir oy muddatda "Kutubxonachilar kunini belgilash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini ta'minlasin.

12. Agentlik manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

13. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Z.Sh.Nizomiddinov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktori vazifasini bajaruvchi K.I.Allamjonov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti

Sh.MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,  
2019-yil 7-iyun

## Kitob karvoni Farg'onada

Insoniyat yaratgan eng noyob va bebaho boyliklardan biri, shubhasiz kitobdir. Zero, internet va boshqa kommunikatsiya vositalari jadal rivojlanayotganiga qaramasdan, insonning ong-u tafakkurini charxlash, ma'naviy olamini boyitish, ezgulikni targ'ib etishda kitobning o'rni saqlanib qolmoqda.



Bu boradagi ezgu tadbirlarning davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi hamda Farg'ona viloyat hokimligi tashabbusi bilan milliy va jahon adabiyotining sara namunalari ortilgan kitob karvoni Farg'onaga kirib keldi.

"Farg'ona viloyatiga kitob karvoni" shiori ostida kirib kelgan qator tuman va shaharlar bo'ylab safarga chiqqan avtokarvon karnay-surnay sadolari ostida kutib olindi. Islom Karimov nomidagi viloyat teatr-konsert

saroyida bo'lib o'tgan tadbirda kitobning hayotimizda tutgan o'rni haqida so'z yuritildi.

Ma'naviyat karvoniga ortilgan kitoblar hududdagi Mehribonlik va Muruvvat uylari tarbiyalanuvchilariga tuhfa qilinadi. Shuningdek, viloyat hokimligi tashabbusi bilan hududlarda tashkil etilgan 66 ta yangi kutubxonaga, mahalla va ta'lim muassasalariga, an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Yosh kitobxon", "Kitobxon oila", "Kitobxon mahalla" ko'rik-tanlovlari g'oliblariga taqdim etiladi.

Muqimjon QODIROV (O'ZA) olgan suratlar.

Qaror va ijro

# “Ma'rifat” targ'ibotchilar jamiyatining taqdimoti

Poytaxtimizdagi Yoshlar ijod saroyida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi qoshida tashkil etilgan “Ma'rifat” targ'ibotchilar jamiyatining taqdimoti bo'lib o'tdi.

Ijodkor ziyolilar, olimlar, pedagoglar, faol yoshlar ishtirok etgan tadbirida jamiyatning targ'ibotchi a'zolariga ko'krak nishoni va a'zolik guvohnomasi topshirildi, turli vazirlik, idoralar, ijodiy va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik memorandumlarini imzolash marosimi o'tdi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari A.Qodirov, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi S.Sayyid, Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti B.Abdulhalimov, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi raisi R.Qurbonov va boshqalar mamlakatimizda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ma'naviyat-rifiy ishlarni zamon bilan hamohang yo'lga qo'yishga ustuvor ahamiyat qaratilayotganini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbarining 2019-yil 3-maydagi “Ma'naviyat-rifiy ishlar

samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori sohaga oid amaliy ishlarning natijadorligini ta'minlashni ko'zlashi bilan ahamiyatlidir.

Ushbu hujjatga ko'ra, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzurida “Ma'rifat” targ'ibotchilar jamiyati nodavlat notijorat tashkiloti sifatida ta'sis etildi. Ma'naviyat-rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish, mamlakatimizda barcha jabhalarda amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, davlat dasturlari mazmun-mohiyatini aholining keng qatlamiga yetkazish ushbu tashkilot faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biridir.

“Ma'rifat” targ'ibotchilar jamiyatida hozirgi kunda barcha vazirliklardan tavsiya qilingan nomzodlar, davlat va jamoatchilik vakillari, olimlar, mutaxassislar, ijodkor ziyolilardan

iborat maxsus targ'ibotchilar guruhi shakllantirilmoqda.

Shu bilan birga targ'ibotchilarni respublika miqyosida ma'naviyat-rifiy targ'ibot va tashviqot ishlariga jalb etish, sohaga yangicha yondashuvni tatbiq qilish, ularni moliyaviy va ma'naviy rag'batlantirib borish, mehnatini munosib qadrlash hamda “Yilning eng faol ma'naviyat targ'ibotchisi” ko'rik tanlovi, “Ma'naviyat fidoyisi” ko'krak nishoniga tavsiya etish tizimi yo'lga qo'yildi. Shuningdek, ma'naviyat-rifiy targ'ibot ishlarining sifati va samaradorligini oshirishga doir anjumanlar, seminarlar, “Ma'naviyat festivali”, “Yilning eng faol ma'naviyat targ'ibotchisi” tanlovi va boshqa ijodiy-ijtimoiy loyihalarni yuqori saviyada tashkil etish kabi vazifalar belgilangan.

Tadbirida “Uzluksiz ma'naviyat-rifiy konsepsiyasi” doirasida nashr etilgan “Yosh ota-ona kitobi”, “Baxtli bola ma'naviyati” hamda “Ma'naviyat-shunoslik” kitoblari taqdimoti o'tkazildi.

Nazokat USMONOVA,  
O'ZA muxbiri

## Mo'jiza — ruhiy olam mahsuli

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrida qoraqalpoq xalqining professional rassomlaridan biri, qoraqalpoq tasviriy san'ati rivojiga katta hissa qo'shgan takrorlanmas iste'dod egasi Qidirboy Saipovning 80 yilligiga bag'ishlangan kecha bo'lib o'tdi.

Kechada so'zga chiqqanlar Qidirboy Saipovning xalqparvar, mehnatsevar va o'z kasbining fidoyisi ekani, hayoti va boy ijodi haqida to'lib-toshib so'zladilar. Ayniqsa rassom hayotiga bag'ishlangan sahna asari ishtirokchilarga juda manzur bo'ldi.

— Qidirboy Saipov qisqa hayoti davomida katta ishlarni qilishga ulgurgan inson, — deydi yosh rassom Aynura Sapekeyeva. — 20 yoshida teatrnig bosh rassomi bo'lish sharafiga sazovor bo'lgan, 60 ga yaqin spektakllar eskizini chizib, dekoratsiyalar yasagan, ko'plab kitoblarga bezak bergan. Uning ijodi bilan yaqindan tanishib, mo'jiza — ruhiy olam mahsuli ekanligini anglaysan. Asosiysi esa, rassom hozirgi I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpoq davlat san'at muzeyining eksponatlarini yig'ishga, muzey tashkil etilishiga yaqindan yordam bergan. Uning ana shunday boy ijod yo'li biz yoshlar uchun katta tajriba maktabini o'taydi.

Nesibeli MAMBETIRZAYEVA,  
“Ma'rifat” muxbiri

## Xayr, 8-“G”, salom, 9-“G”

Yakuniy imtihonlar nihoyasiga yetib, sog'lomlashtirish maydonchalarida qizg'in ish jarayoni olib borilayotir. Shu munosabat bilan 8-“G” sinf rahbari Dilbar Sa'dullayevaning tashabbusi bilan ota-onalar yig'ilishi o'tkazildi va unda o'quv yili yakuni, oromgohda ishlarni mazmunli tashkil etish masalalari muhokama etildi.

Har gal ota-onalar yig'ilish haqida eshitishsa “yana majlismi?” deyishardi. Bu galgi majlis noan'anaviy o'tdi. Yig'ilishda sinf rahbari boshchiligida o'quvchilar ham ishtirok etib, ota-onalari uchun sovg'a hozirlashdi. Sinfxonaga kiraverishda doskani bezab turgan “Xayr 8-“G”, salom 9-“G” shiori ota-onalarning kayfiyatini ko'targan bo'lsa, farzandlarining boshlovchilik mahorati, turli quvnoq sahna ko'rinishlaridan so'ng ularning yuziga tabassum yugurdi. Bu esa ota-onalar uchun har gal yig'ilishda ustozdan farzandlari odob-axloqi, o'qishlari uchun gap eshitish yoki rasmiyatchilik bilan o'tadigan majlisdan a'loroq bo'ldi.

Ota-onalar majlisida 2018-2019-o'quv yili davomida amalga oshirgan ishlarimiz, darsdan tashqari sayohatlarimiz, erishgan yutuqlarimiz yodga olindi. Bundan tashqari, sinfdoshlarimizning to'garak va sport musobaqalarida erishgan yutuqlari haqida ham so'z bordi. O'g'il bolalarning sho'xliklari esga olinganda barchaning yuziga yengil tabassum yugurdi. Tadbir oxirida a'lo va yaxshi baholarga o'qigan o'quvchilar, tadbir va jamoat ishlarida faol qatnashganlarga faxriy yorliqlar berildi.

Sinf rahbarimiz Dilbar Sa'dullayeva bu kabi tadbirlar maktab va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashini alohida ta'kidladi.

Mohichehra SOBIROVA,  
Yashnobod tumanidagi  
244-maktab o'quvchisi



## O'qituvchi nimanin o'ylaydi?

Yozuvning chiroyli bo'lishida o'qituvchining hisssasi katta. Bunga asosiy poydevor boshlang'ich sinfda qo'yiladi. Yuqori sinfga o'tgach, mas'uliyat ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari zimmasiga yuklanadi. Bunda, avvalo, o'qituvchining imlosi chiroyli bo'lishi kerak. Shunda o'quvchilarda ham chiroyli yozish ko'nikmasi shakllanadi.

Gulchehra ASHUROVA

Adabiyot darsliklarida biror asar ortidan uning tahlili beriladi. Buni unchalik yoqlamayman. Chunki asar haqida o'quvchiga insho yozdirdsak, tayyor tahlilni ko'chirib qo'ya qoladi. Bu bolaning mustaqil fikrlashiga to'sqinlik qiladi.

Dilfuza SUVONOVA

Darsliklar haqida ming bora gapiramiz, tahlil qilamiz, maqolalar yozamiz. Ammo ming afsuski, yangi chiqayotgan darsliklarda xatolar kamayishi o'rni qaytib boraveradi. O'quvchi uchun yengillik bo'lgani sezilmaydi. Faqat darslikning yili va nashri o'zgaradi, xolos. Hatto ayrim kitoblarning dizayni ham oldingi holatda qolaveradi.

Lobar YOQUBOVA

Ijtimoiy tarmoqlarda, o'qituvchilar guruhlarida joylashtiriladigan tadbirlarning ko'p qismi ko'zbo'yamachilik uchun o'tkaziladi, nazarimda. Texnologiya fanida muammolar ko'p. Biz ham turli tadbirlar o'tkazamiz, lekin qilgan ishimizni hech ham fotosuratga muhrlab, atrof-dagilarga ulashmagan ekanmiz.

Hafiza RASHIDOVA

Maktabimiz reytingi shahar maktablari ichida ancha yuqori bo'lgani uchun mikrohududdan tashqari ham o'quvchilar ko'p kelardi. Natijada sinfxonalar yetishmovchiligi yuzaga kelardi. Endi pulli kvotalarning ajratilishi bu kabi muammolarning oldini olib, o'quvchilarga yanada sifatlari ta'lim-tarbiya berish imkonini yaratadi.

N.ABDIDODIYEVA

O'qituvchini qiynayotgan muammolarni maktabga kelib, bir soat dars o'tmagan odam hech qachon tushunmaydi. Maktabga kelib, uni qilmagansan, buni o'rganmagansan, deb muammoning yechimini qidirish o'rni o'qituvchi va rahbarlarni ayblaydiganlar oz emas...

Yulduzoy JABBOROVA

Hozir mehnat tarbiyasi boshqacha talqin qilinmoqda. Me'yordagi mehnatning o'quvchi tarbiyasidagi ahamiyati katta. Bu orqali bolada mas'uliyat, vaqtni tejash, hamkorlik, hamjihatlik, ozodalik, maktab mulkini avaylash, boshqalar mehnatini qadrlash kabi ko'plab fazilatlar shakllanadi.

O'QITUVCHI

Dolzarb mavzu

# Har qanday noqonuniy pul yig'implari taqiqlanadi, ammo...

Ayni kunlarda maktablarda o'quv yili yakunlanishi bilan ota-onalardan ta'mir uchun pul yig'ish mavzusi kun tartibiga chiqdi. Ijtimoiy tarmoqlarda ham shu mavzu eng ko'p muhokamaga sabab bo'lmoqda.



Misol uchun, Nodir Safarov (ism-familiyasi o'zgartirilgan) ismli foydalanuvchi "Facebook" sahifasida shu mavzuda post qoldirgan:

*"Uzunquloq gap emas. Hamkasblarimning farzandlari maktabga boradi. Ularning aytishicha, sinf remonti uchun yana pul yig'ish boshlanibdi. Shu haqda bir o'qituvchiga aytgandim, "Ota-onalar kengashi shunday qarorga keldi, biz aralashganimiz yo'q", dedi. To'g'ri, ota-onalar homiylik qilishi mumkin. Lekin bu hamma o'quvchilar 20 yoki 30 ming so'mdan olib kelishi kerak, degani emas-ku?"*

Ushbu postga ko'plab yurtdoshlarimiz fikr bildirdi. Bir foydalanuvchi "Bu ixtiyoriy-majburiy jarayon-ku. Sinf rahbarlariga bu pul umuman kerak emas. Uning chiroyli nomi bor — homiylik", degan.

Boshqa bir yurtdoshimiz maktabda "yig'-yig'" tugamas ekan, o'qituvchining maoshiga ko'z olaytirish ham tugamasligini, buni o'qituvchilar tushunib yetmayotgani, aniqrog'i, ularga tushuntirib bo'lmayotganini ta'kidlagan. "Facebook"ning yana bir foydalanuvchisi Sharifa Madrahimovaning yozishicha, pulni ota-onalar yig'yapti. O'qituvchi bu jarayondan o'zini xolis qilib olgan. O'qituvchiga yaxshi ko'rinish ilinjidagi bir-ikki ona yoki o'zi o'sha maktabda ishlaydigan boshqa o'qituvchi bosh bo'lib olgan. O'sha yig'ib beryapti.

Gulixon Fathullayeva ismli foydalanuvchi yuqoridagi fikrlarga aks munosabat qoldirgan:

*"Bizning maktabda kim yordam beradi yoki homiylik qila oladi, deb so'raladi. Majburiy yig'implar yo'q bo'ldi".*

Yuqoridagi fikr-mulohazalarni o'qib,

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarni nafaqat ota-onalar, balki maktab rahbarlari, hatto ayrim hududiy xalq ta'limi boshqaruvi idoralari mutaxassislari ham to'liq tushunib yetmaganiga amin bo'ldik. Bu o'rinda, avvalo, davlat tomonidan ta'lim sohasiga ajratilgan mablag'lar nimalarga sarflanishi ko'zda tutilganiga to'xtalish kerak. Ana shu rejada yangi o'quv yiliga tayyorgarlik jarayonidagi joriy ta'mir ham nazarda tutilganmi?

Ushbu savolga javob olish maqsadida Xalq ta'limi vazirligiga murojaat qildik.

— *Ta'lim muassasalarida har qanday pul yig'implari noqonuniy bo'lib, taqiqlanadi, —* deydi Xalq ta'limi vazirligi boshqarma boshlig'i Erkin Murodov. — *Bunday holatlarning oldini olish uchun kuzatuv kengashlari tashkil etilgan. Kengashning asosiy vazifalaridan biri noqonuniy pul yig'implarining oldini olishdir. Sinxonalarni ta'mirlash yoki o'quv yili yakunida boshqa maqsadlarda o'quvchilardan pul yig'ish asossiz. Qaysidir maktabda bunday holat aniqlansa, qonun doirasida tegishli chora ko'riladi. Bu kabi salbiy holatlarning oldini olishda ota-onalardan ham amaliy yordam kutib qolamiz.*

Darhaqiqat, Kuzatuv kengashlari to'g'risidagi nizomning 5-bobida kengashning huquq va vakolatlari

belgilangan. Unga ko'ra, kengash o'ziga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda ta'lim muassasasi direktori va direktor o'rinbosarlarining boshqaruv faoliyati, ta'lim-tarbiya jarayonining sifatli tashkil etilishi hamda o'quvchilar, ularning ota-onalaridan noqonuniy pul yig'implari undirilmasligi bo'yicha jamoatchilik nazoratini o'rnatadi, ta'lim muassasasining umumiy yig'ilishlarida qatnashadi, o'quvchilar va ota-onalarning manfaatlarini himoya qiladi.

Shu o'rinda savol tug'iladi: qonuniy pul yig'ish qay tartibda amalga oshiriladi?

Xalq ta'limi vazirligi ma'lumotiga ko'ra, agar ota-onalar maktabga homiylik yordami ko'rsatmoqchi bo'lsa, shartnoma tuziladi. Shundan keyin ota-onalar tegishli bankka borib, maktab hisobraqamiga belgilangan mablag'ni o'tkazadi. To'lov xabarnomasini maktab ma'muriyatiga keltirib beradi.

Yaqinda bu masalaga Xalq ta'limi vazirligi yana bir bor to'xtalib, ayrim OAVlarda umumta'lim muassasalari ta'miriga yetarli mablag' ajratilishi, shunga qaramay, ota-onalar tomonidan maktabga yordam berish uchun pul yig'ilishi noto'g'ri ekanligi mazmunida maqolalar e'lon qilindi.

Shu munosabat bilan vazirlik tomonidan maktab xarajatlari bo'yicha smetalarni ochiq e'lon qilib borish bo'yicha ish boshlangani, asosiysi, maktab kuzatuv kengashi a'zolari ushbu smetalarda ko'rsatilgan mablag'larning qanchaligi va nima uchun sarflanishini yaxshi tushunib olishi kerakligi, shundaygina haqiqiy holatga adolatli baho berilishi ma'lum qilindi.

Bunda Olmaliq shahri misolida maktablarga davlat tomonidan mablag' ajratilishi tahlil etilgan va bu yetarli emasligi ko'rsatib berilgan.

Olmaliq shahridagi maktablarga budgetdan ajratilgan jami mablag'ning 95,5 foizi xodimlarning ish haqi va u bilan bog'liq xarajatlarga, 2 foizi kommunal to'lovlarga va qolgan 2,5 foizi esa boshqa maqsadlarga (joriy ta'mirlash, kanselyariya va xo'jalik mollari xarid qilish, qog'oz, kutubxona fondi, telefon va internet xarajatlari, jihozlash va hokazo) yo'naltiriladi.

Ajratilgan mablag'ni maktab ma'muriyati muassasani joriy ta'mirlash va obodonlashtirish hamda yangi o'quv yili va kuz-qish mavsumiga tayyorlashga

sarflashi lozim. Albatta, bu mablag' maktablarni to'liq va sifatli ta'mirlashga yetarli emas. Shu tufayli maktab rahbariyati yillar davomida pul yig'ishga majbur bo'lgan.

Hozir Xalq ta'limi vazirligi tomonidan mazkur holatni bartaraf etish uchun maktablar tizimini moliyalashtirish va qo'shimcha mablag' topish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, maktablarda "vaucher" (bola soniga qarab moliyalashtirish) tizimini joriy etish rejalashtirilmoqda. Bu tizimga asosan maktablarga o'quvchilar soniga qarab budgetdan mablag' ajratiladi. Shuningdek, respublika bo'yicha budget mablag'lari adolatli va shaffof taqsimlanib, xarajatlar budgetdan ajratilgan mablag'lar doirasida amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, maktablarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash uchun pullik xizmat (bo'sh xona va maydonlarni ijaraga berish, pullik to'garak)lar tashkil etish yo'lga qo'yiladi. Maktablarga qo'shimcha mablag' topgan holda xodimlarni rag'batlantirish va muassasaning moddiy-texnik bazasini yaxshilash imkoni beriladi.

Maktablarga qo'shimcha mablag' topishning yana bir yo'li homiylarni jalb etishdir. Homiylar turli xonalar, sobiq bitiruvchilar, o'quvchilarning ota-onalaridan iborat bo'lishi mumkin.

Homiylik ixtiyoriy tarzda va qonuniy tashkil etilishi lozim. Ya'ni, pul mablag'lari maktab hisobiga tushishi va homiylarga mablag'larning sarflanishi bo'yicha ma'lumot olish uchun imkoniyat yaratilishi kerak.

Budgetdan ajratilgan va qo'shimcha ishlab topilgan mablag'larning samarali va maqsadli sarflanishini nazorat qilishda maktablarda tashkil etilgan kuzatuv kengashlari va ota-onalarning o'rni katta. Ota-onalar kuzatuv kengashi orqali mablag'larning sarflanishi ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishda ko'maklashishlari lozim.


Ayni shu tartibda ish olib borib, ijobiy natija qayd etayotgan maktablar ham bor. Misol uchun, Olmazor tumanidagi 224-maktab rahbariyati ota-onalar bilan yaxshi hamkorlik o'rnatgan. Natijada homiylik orqali yig'ilgan mablag' hisobidan maktab nafaqat ta'mirlandi, balki yangidan qurildi.

Bir jumla bilan aytganda, maktablar bugun har qachongidan-da, siz-u bizning ko'magimizga muhtoj. Faqat bu jarayon Xalq ta'limi vazirligi tomonidan taqdim etilgan yangi mexanizmlar asosida tashkil etilsa, jamoatchilik o'rntasida turli gap-so'zlar ko'payishining oldi olinadi. Bunda, avvalo, maktab direktorlarining ishini to'g'ri tashkil etishi muhim ahamiyatga ega.

Budgetdan ajratilgan va qo'shimcha ishlab topilgan mablag'larning samarali va maqsadli sarflanishini nazorat qilishda maktablarda tashkil etilgan kuzatuv kengashlari va ota-onalarning o'rni katta. Ota-onalar kuzatuv kengashi orqali mablag'larning sarflanishi ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishda ko'maklashishlari lozim.

# “Jasoratimiz, ijodimiz sen uchun, Vatan!”

Iqtidorli o'quvchilarning intellektual salohiyatini aniqlash, aql-zakovati va ijodiy qobiliyatini yanada rivojlantirish, ixtirochilik faoliyatini yuzaga chiqarish maqsadida maktabimizda tashkil etilgan “Kichik akademiya”ga ayni paytda 956 nafar o'quvchi qamrab olingan. 2005-yili ish boshlagan ushbu “akademiya” bolalarning iqtidori va qobiliyatini kashf etuvchi ixtiyoriy ilmiy-ijodiy uyushma sifatida faoliyat yuritmoqda.



E'tiborlisi, “Jasoratimiz, ijodimiz sen uchun, Vatan!” shiori ostida faoliyat yuritayotgan bu uyushma o'z ilmiy kengashi, nizomi, dasturi va ramziga ega. Akademiya “Yilning eng iqtidorli o'quvchisi”, “Eng yaxshi ilmiy ish”, “Eng yaxshi ijodiy ish”, “Eng yaxshi ixtirochi”, “Eng yaxshi jurnalist o'quvchi”, “Eng yaxshi dasturchi” nominatsiyalari bo'yicha o'g'il-qizlarning qobiliyatini yuzaga chiqarmoqda.


2005—2018-yillari akademiya 4 ta, 2018-2019-o'quv yilidan boshlab esa 5 ta yo'nalishda ish olib borilmoqda. Jumladan, fanlar kesimida iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash yo'nalishida shug'ullanayotgan bolalar 653 nafar. Bunda tajribasiz laboratoriya ishlarini bajarish, fan olimpiadalari, bilimlar bellashuviga tayyorgarlik ko'riladi. **Yosh ijodiy izlanuvchilar bo'limi** faoliyati esa o'quvchilarning fanga qiziqishini oshirish, ijodiy ish va bilimlarni ommalashtirish, o'quvchilarning mustaqil shug'ullanishiga ko'maklashishdan iborat. **Yosh ilmiy tadqiqotchilar** yo'nalishida o'quvchilarning kichik

ilmiy ish va ixtirolar yaratishiga ko'maklashish, ularni ilmiy-amaliy konferensiyalarga tayyorlash, o'z tadqiqotlarini “Kichik akademiya” qoshidagi kengashda himoya qilishlarini ta'minlashga asosiy e'tibor qaratiladi. **Madaniyat va sport bo'limi** bolalarning o'zi qiziqqan sport va madaniyat yo'nalishi bo'yicha bilimini oshirishiga ko'maklashadi. **Yosh ixtirochi va dasturchilar yo'nalishida** o'quvchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, jumladan, robototexnika, dasturiy injiniring hamda virtual loyihalash sohalariga qiziqishlari rivojlantiriladi.

Ushbu yo'nalishlarda faoliyat quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:

- Axborot-metodik ta'minlash;
- pedagogning texnologik tayyorgarligini ta'minlash;
- iqtidorli bolalarning aqliy rivojlanishi va o'zini namoyon qilishi uchun shart-sharoit yaratish hamda ularni nazorat qilish;
- iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda tizimli-amaliy yondashuvni tashkil qilish.

Maktabimiz pedagoglari o'quvchilarga bilim berishdan avval “Bugungi kun o'quvchisi qanday qobiliyatga ega?” degan savolga javob topishadi. Masalan, qiziquvchan, ziyrak, noodatiy, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tez o'zlashtiradigan... Hozirgi davr bolasiga faqat darslikdan saboq berib bo'lmaydi. Eski, an'anaviy usulda dars beruvchi o'qituvchi endi bugungi o'quvchiga ta'lim-tarbiya bera olmaydi. Buning uchun o'qituvchi tinimsiz o'z ustida ishlashi, o'quvchida ro'y berayotgan har bir o'zgarishni tez payqay olishi, layoqati, iqtidorini ilg'ashi va uni yo'naltira olishi muhimdir. Buni yaxshi anglagan holda o'quvchilarni mustaqil intellektual faoliyatga jalb etish, ilmiy-amaliy loyihalar ustida ishlashga qiziqtirishni birlamchi vazifa deb bilyapmiz. Natijada fidoyi muallimlar mehnati o'z samarasini beryapti. Jumladan, Bilimlar bellashuvida “Kichik akademiya”miz o'quvchilari turli fan yo'nalishlari bo'yicha tumanda 20 ta faxrlil o'rinni qo'lga kiritdi. 9—11-sinflar o'rtasidagi fan olimpiadasida ham o'quvchilarning tuman bosqichida 19 ta, shahar bosqichida 2 ta sovrinli o'rinni egalladi. 9-sinf o'quvchisi Rahmatilla Omonov Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida o'tkazilgan “Ulug'bek izdoshlari” respublika fan olimpiadasida matematika va fizika fanidan mutlaq g'olib deb topildi va Samarqand shahrida bo'lib o'tadigan xalqaro olimpiadaga yo'llanma oldi. Yana ikki o'quvchimiz — Abduvohid Erkinov “Eng yaxshi



fizika masalasi yechimi” nominatsiyasida uchinchi, Izzatilla Otajonov informatikadan fan olimpiadasining shahar bosqichida birinchi o'rinni egalladi. Azimjon Gadoymurodov esa S.Sirojiddinov nomidagi O'ZMU akademik litseyi tomonidan har yili o'tkaziladigan iqtidorli bolalar tanlovida 1-o'rinni egallab, litseyga imtihonsiz kirish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Ayni vaqtda yuqori sinf o'quvchilarimizdan 16 nafari IELTS, 9 nafari CEFER sertifikatiga ega.

Yana bir yutug'imiz shuki, Xalq ta'limi vazirligi tomonidan o'tkazilgan «Yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish» mavzusidagi anjumanda respublika bo'yicha 3000 ga yaqin o'quvchi orasidan “Kichik akademiya”miz a'zosi Laylo Obidjonova ham o'z layoqati va iqtidorini namoyon qilib, delegatlikka tanlab olindi.

O'quvchilarning orasida Osiyo chempionlari, Xalqaro matematika olimpiadalari g'oliblari, jahonning nufuzli musobaqalari sovrindorlari borligidan faxrlanamiz. Jumladan, 10-sinf o'quvchilaridan Usmonjon Erkinov suv polosi bo'yicha O'zbekiston chempionatida 2-, Nargiza Rahmonqulova kurash bo'yicha O'zbekiston chempionatida 2-, Shahnova Tog'aymurodova qilichbozlik bo'yicha Osiyo chempionatida 3-o'rinni egallagan. Bunday yutuqlarni ko'plab davom ettirish mumkin. Asosiysi, bu yutuqlar zamirida izlanuvchan o'qituvchilar mehnati va bilimdon o'quvchilar sa'y-harakati mujassam.

Malika ABDULLAYEVA,  
Sergeli tumanidagi 300-IDUM direktorining  
o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari,  
“Kichik akademiya” rahbari

Yoz — o'tmoqda soz

## Mazmunli ta'til

Yana bir yoshga ulg'aygan bolalarning yangi o'quv yilida yangicha kuch-g'ayrat va qiziqish bilan bilim olishi uchun yozgi ta'til kunlarini zavqli o'tkazishi ahamiyatli. Shu bois ta'til davrida umumta'lim maktablari o'quvchilari qatori Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari ham dam olish maskanlari hamda sog'lomlashtirish oromgohlarida dam olishadi.



Bu yil ham O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi va Xalq ta'limi vazirligi hamkorligida 1040 nafar tarbiyalanuvchi uchun tog'yonbag'ridagi go'shalarida hordiq chiqarish imkoniyati yaratildi.

Yashnobod tumanidagi

103-maxsus maktab-internatda Navoiy, Zarafshon, Samarqand hamda Toshkent shaharlaridagi Mehribonlik uylarining 180 nafar tarbiyalanuvchisini Bo'stonliq tumanidagi “Mehribonlik uyi” oromgohiga kuzatish marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbirda Xalq ta'limi vazirligi mas'ullari, Mehribonlik uyi tarbiyachilari, ota-onalar va mahalla faollari ishtirok etdi.

— 20 nafar o'quvchimizni oromgohga yuborish uchun olib keldik, — deydi



Zarafshon shahridagi Mehribonlik uyi direktori Dilbar Orziyeva. — Ular yoz mavsumini juda sog'inib kutishadi, negaki so'lim tabiat qo'nyida miriqib dam olish barobarida do'stlar orttirishadi.

Mavsum davomida oromgohlarda nazoratchi tarbiyachilar va shifokorlar yordamida sifatli tibbiy xizmat, sanitariya-gigiyena talablariga mos shart-sharoit hozirlanadi.

Shoira BOYMURODOVA  
V.GRANKIN olgan suratlar.

Dolzarb mavzu

# Yuridik kollej bitiruvchilari universitetga test sinovlarisiz kira oladimi?

(Davomi. Boshi 1-betda.)

## Aslida masala mana bundoq ekan

Farzandi yoki biror qarindoshi yaqin o'tgan yillar ichida yuridik kollejni tamomlaganlarning umidvor bo'lishiga o'rin yo'q. Sababi, yuridik

likasi Adliya vazirligining yuridik kollejlarda o'qishni tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari qabul qilindi. Shundan so'ng asosiy ish respublikadagi mavjud yuridik kollejlarni Adliya vazirligi tasarrufiga o'tkazish va faoliyati to'xtatilgan kollejlarni binosida bir nechta yuridik kollejlarni tashkil etishdan boshlandi. Bugun vazirlik tasarrufigidagi kollejlarni



kollej bitiruvchilarini taqsimotga muvofiq TDYUga suhbat asosida qabul qilish 2020/2021-o'quv yilidan amalga oshiriladi. Kollejni oldingi yili bitirganlar ham, bu yil tamomlamoqchi bo'lganlar ham bunday imtiyozga ega emas. Joriy yilda yuridik kollejlarga qabul qilingan o'quvchilar o'qishni tamomlagandan so'ng maxsus yo'llanma bilangina Toshkent davlat yuridik universitetiga hujjat topshirish va suhbat asosida o'qishga kirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga binoan, yuridik kollejlarning o'quv-metodik faoliyatini muvofiqashtirish bizing zimmasiga yuklatildi, — deydi Toshkent davlat yuridik universitetining litsey va kollejlarni ishlab bo'limi boshlig'i Otabek Soliyev. — Qarorda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 24-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik kollejlarni bitiruvchilarini Toshkent davlat yuridik universiteti bakalavriyatiga o'qishga qabul qilish to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida"gi hamda 2018-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respub-

soni respublika bo'yicha 14 taga yetdi. Mazkur qarorlar asosida har bir yuridik kollejning ustavi hamda tuzilmasi ishlab chiqilib, tasdiqlandi. Qisqacha aytganda, yuridik kollejlarning faoliyati tubdan o'zgaradi. Bu yildan boshlab bu kollejlarga 9-sinf bitiruvchilari emas, 11-sinf va akademik litsey yoki kasb-hunar kollej bitiruvchilari saralab olinadi...

## Farzandingiz yuridik kollejga o'qishga kirs...

Bu hali dilbandingiz yuridik universitetga kirish yo'lining boshida turibdi degani. U ikki yil davomida faqat a'lo baholarga o'qishi (barcha fanlardan yakuniy bali 71 foizdan yuqori bo'lishi shart), o'zining a'lo xulqi, jamoat ishlaridagi faolligi bilan tengdoshlariga namuna bo'lishi kerak. Ana shu sifatlariga asoslanib, kollej huzurida

Yuridik kollej bitiruvchilarini taqsimotga muvofiq TDYUga suhbat asosida qabul qilish 2020/2021-o'quv yilidan amalga oshiriladi. Kollejni oldingi yili bitirganlar ham, bu yil tamomlamoqchi bo'lganlar ham bunday imtiyozga ega emas.



tuzilgan maxsus komissiya tomonidan loyiq ko'rilgan o'quvchiga yuridik universitetga hujjat topshirish uchun yo'llanma beriladi. Aytib o'tish kerakki, maxsus komissiya Adliya vazirligi, Xotin-qizlar qo'mitasi, "Mahalla" jam'armasi, Yoshlar ittifoqi vakillaridan tuziladi hamda ular yo'llanma berishda yana bir mezon-ga tayanishadi. Ya'ni, necha nafar o'quvchi a'lochi bo'lishidan qat'i nazar, taqdim etiladigan yo'llanmalar soni yuridik kollej bitiruvchilari sonining 30 foizidan oshmasligi shart. Ana shunday: farzandingiz kollejga kirgach, yo'llanma olish uchun qattiq mehnat qilishi, o'qishi, izlanishi lozim.

## Yo'llanma bilan universitetga yo'l oladimi?

Yo'llanmani naqd qilgan abituriyent 1-iyuldan 10-iyulgacha suhbat komissiyasi tomonidan yakka tartibdagi suhbatdan o'tkaziladi.

— Suhbat komissiyasi tarkibiga Adliya vazirligi va TDYU bilan bir qatorda, boshqa tashkilotlar vakillari ham kiritilishi ko'zda tutilgan. Bu esa og'zaki imtihonning shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi, — deydi Otabek Soliyev. — Universitet bakalavriyatiga hududiy adliya organlarining yo'llanmalariga ko'ra o'qishga qabul qilingan yoshlar maxsus 3 yillik dastur bo'yicha shartnoma asosida o'qiydi. Oliy ta'lim muassasini tugatgach, bitiruvchi uch yillik uzluksiz ishlab berish sharti bilan oliy ma'lumotini tasdiqlovchi diplom oladi. Taqsimot bo'yicha uzluksiz ishlab berish uchun yuborilgan bitiruvchi ishga joylashganidan so'ng ish beruvchi unga tegishli mehnat sharoitlarini

yaratadi. Zarur hollarda turarjoy bilan ta'minlaydi...

## Bitiruvchi ishlab berishdan bosh tortsa...

Mazkur qarorlar bilan tanishib chiqib, bitiruvchilarga bunday qilishni maslahat bermagan bo'lardik. Aks holda uch yil shartnoma asosida o'qish bir yon, ishlab berishdan bosh tortadigan uchun tortiladigan jarima bir yon bo'lib qoladi-da. Ya'ni, farzandingizga maxsus jo'natilgan tashkilotda ishlab berish yoqmay, uzluksiz ishlab berishdan bosh tortsa, TDYUda o'qishni bitirgan vaqtda shartnoma miqdori qancha bo'lsa, shuning yigirma besh barobari miqdoridagi summani kompensatsiya sifatida to'lashingizga to'g'ri keladi.

## Qabul kvotalari qanday?

Ko'pchilikning xayolidan o'tayotgan savol: yo'llanma bilan keluvchi abituriyentlar qabul kvotalarini butkul egallab olmaydimi? Yo'q, tashvishlanishga asos yo'q. Bizga ma'lumot bergan mutaxassisning aytishicha, yo'llanma bilan kelgan abituriyentlarning qabul kvotalari alohida bo'ladi.

Yuridik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtiga kirish yildan yilga murakkablashib borayotgan bir paytda bu yangilik diliga shu sohaning yetuk mutaxassisi bo'lish istagini tukkan yoshlar uchun ajoyib imkoniyat. Endi o'quvchi kollejda shunchaki o'qimaydi, balki bilimini tinimsiz oshiradi. Odob-axloq qoidalariga rioya qiladi. Muhimi, uning oldida katta maqsad turadi. Bu maqsad uni a'lo baholarga, namunali xulq bilan o'qishga undab turadi. Biz esa har doimgidek kuzatamiz. Ko'raylikchi, bu yangilik qay darajada o'zini oqlaydi. Umid qilamizki, yangi tartib o'zining ijobiy samarasini beradi va shu kabi yangiliklar boshqa oliy ta'lim dargohlarida ham sinab ko'riladi.

Shohiba MULLAYEVA,  
"Marifat" muxbiri

# Pedagog xodimlarga maxsus ustama to'g'ri belgilanganmi?

Shu yilning 7-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Olis hududlarda joylashgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning mehnatini yanada rag'batlantirish to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. Unga binoan, qaror ilovasida keltirilgan hududdagi ta'lim muassasalariga boshqa hududdan kelib dars berayotgan pedagog xodimlarga ustama belgilandi. Agar pedagogning maktabda ishlagan davri 6 oydan 3 yilgacha bo'lsa — 10 foiz, 3 yildan 5 yilgacha bo'lsa — 20 foiz, 5 yildan 10 yilgacha — 30 foiz, 10 yildan 15 yilgacha — 40 foiz, 15 yildan ortiq bo'lsa — 50 foiz ustama beriladi. Albatta, bu olis hududlarda mehnat qilayotgan pedagoglarga qo'shimcha rag'bat bag'ishladi. Ammo tahriyrimizga ayrim tumanlardan e'tirozli murojaatlar ham kelmoqda. Jumladan, Mirishkor tumanidagi 2-maktab direktori Abdunabi Abdiyev o'z e'tirozini quyidagicha bayon qildi:

— Mirishkor Qashqadaryo viloyatining kadrlar taqchilligi eng yuqori bo'lgan tumani hisoblanadi. Mazkur qaror loyihasi e'lon qilinishidan bu hududdagi o'qituvchilarning 30 foizidan ziyodi o'rta maxsus ma'lumotli bo'lgan 6 ta maktab ro'yxatdan o'rin olgandi. Qaror

e'lon qilinganda esa aynan kadrlar yetishmaydigan, viloyat markazidan 80—90 chaqirim yiroqdagi aynan shu maktablar ro'yxatdan tushib qolibdi. Aksincha, viloyat markazining shundoq biqinida joylashgan, kadrlarga ehtiyoji nisbatan kam bo'lgan hududlar ro'yxatga kiribdi.

Adliya vazirligi izohida aytilishicha, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida boshqa hududlardan kelib faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarga maxsus ustama belgilanadigan hududlar ro'yxatiga Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyat hokimliklari taklifiga binoan Xalq ta'limi vazirligi hamda Moliya vazirligi tomonidan kelishilgan holda o'zgartirish kiritilishi mumkin. Shu bois e'tirozim gazetada chop etilib, ushbu muammoni hal etishda amaliy yordam berilsa, Qolaversa, bu ro'yxat bilan ko'p o'qituvchilar tanish emas. Iloji bo'lsa, gazetada ustama belgilanadigan hududlar ro'yxati ham e'lon qilinsa.

Yuqoridagi talabni inobatga olib, gazetamizda ustama belgilanadigan hududlar ro'yxatini keltiryapmiz.

**PS:** Ushbu masalada Xalq ta'limi vazirligidan javob kutib qolamiz. **Tahriyati**

Hududning nomi	Maxsus ustama belgilanayotgan hudud
<b>1. Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	
Nukus shahri	"Karatao" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Kegeyli tumani	"Aspantay" ovul fuqarolar yig'ini (OFY)
Qo'ng'iro't tumani	"Qoraqalpog'iston" shaharcha fuqarolar yig'ini (ShFY)
Mo'ynoq tumani	"Qirg'iz" shaharcha fuqarolar yig'ini (ShFY)
Taxtako'pir tumani	"Jasliq" shaharcha fuqarolar yig'ini (ShFY)
Qo'ng'iro't tumani	"Qazahdarya" ovul fuqarolar yig'ini (OFY)
Mo'ynoq tumani	"Xakim - ota" ovul fuqarolar yig'ini (OFY)
Taxtako'pir tumani	"Qostruba" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Qo'ng'iro't tumani	"Okkamish" ovul fuqarolar yig'ini (OFY)
Qo'ng'iro't tumani	"Qumboskan" ovul fuqarolar yig'ini (OFY)
Qo'ng'iro't tumani	"Paxtaobod" ovul fuqarolar yig'ini (OFY)
Qo'ng'iro't tumani	"Yanboshqal'a" ovul fuqarolar yig'ini (OFY)
Qo'ng'iro't tumani	"Ko'kcha" ovul fuqarolar yig'ini (OFY)
Qo'ng'iro't tumani	"Chuqurqaq" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
<b>2. Buxoro viloyati</b>	
Shofirkon tumani	"Sharof Rashidov" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Romitan tumani	"Gazli" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
G'ijduvon tumani	"Qizil-Ravot" qishloq fuqarolar yig'ini (QFY)
Peshku tumani	"Ko'kcha" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Peshku tumani	"Jongeldi" qishloq fuqarolar yig'ini (QFY)
<b>3. Jizzax viloyati</b>	
Baxmal tumani	"Baxmal" qishloq fuqarolar yig'ini (QFY)
Baxmal tumani	"Muzbuloq" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
G'allaorol tumani	"Gulchambar" qishloq fuqarolar yig'ini (QFY)
G'allaorol tumani	"Jiydali" qishloq fuqarolar yig'ini (QFY)
G'allaorol tumani	"Qipchoqsuv" qishloq fuqarolar yig'ini (QFY)
G'allaorol tumani	"Korizquduq" qishloq fuqarolar yig'ini (QFY)
G'allaorol tumani	"Qo'yotsh" shaharcha fuqarolar yig'ini (ShFY)
G'allaorol tumani	"Oqtosh" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
G'allaorol tumani	"Sovruk" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Sharof Rashidov tumani	"Ko'rpsay" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Sharof Rashidov tumani	"Tinchlik" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Forish tumani	"Do'stlik" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Forish tumani	"Darvoza" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
<b>4. Qashqadaryo viloyati</b>	
Qarshi tumani	"Poshton" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Qarshi tumani	"Cho'libo'ston" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Qarshi tumani	"Bog'obod" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Qarshi tumani	"Hilol" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Qarshi tumani	"Kerayit" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Qarshi tumani	"Xonobod" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
G'uzor tumani	"Qorako'l" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Dehqonobod tumani	"Sarchashma" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Dehqonobod tumani	"Terakli" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Dehqonobod tumani	"Boshchorbog" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Dehqonobod tumani	"Oqqishloq" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Dehqonobod tumani	"Taraqochig'ay" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Dehqonobod tumani	"Oybek" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Dehqonobod tumani	"Obravon" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)

Qamashi tumani	"Duob" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Qamashi tumani	"Chashmayiron" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Qamashi tumani	"Chilg'az" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Koson tumani	"Katta o'ra" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Koson tumani	"Olachabob" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Koson tumani	"Uyrot" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Koson tumani	"Xo'jaquduq" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Nishon tumani	"Do'stlik" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Nishon tumani	"Qirg'uloq" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Kasbi tumani	"Cho'lquvar" qishloq fuqarolar yig'ini (QFY)
Nurobod tumani	"Langar" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Nurobod tumani	"Ayritom" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Nurobod tumani	"Tarag'ay" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Nurobod tumani	"Quruqsoy" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Nurobod tumani	"Guliston" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Nurobod tumani	"Sho'rbozor" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Nurobod tumani	"Xushali" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Nurobod tumani	"Yangihayot" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Nurobod tumani	"Taloqtepa" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Nurobod tumani	"Qo'shanhor" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Nurobod tumani	"Eski anhor" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Nurobod tumani	"Paxtaliso'y" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Nurobod tumani	"Umakay" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Nurobod tumani	"Sho'rquduq" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Nurobod tumani	"Navro'z" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Nurobod tumani	"Galabek" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Nurobod tumani	Qoquduq qishlog'i ("Chorvador" MFY tarkibida)
Nurobod tumani	"Qanoatli" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Nurobod tumani	"Toshli" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Nurobod tumani	Shamolquduq qishlog'i ("Chorvador" MFY tarkibida)
Nurobod tumani	"Sho'rbozor" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Shahrisabz tumani	"G'elon" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Shahrisabz tumani	"Sarchashma" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Shahrisabz tumani	"Sayyod" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Shahrisabz tumani	"Ko'l" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Yakkabog' tumani	"Tatar" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
<b>5. Navoiy viloyati</b>	
Zarafshon shahar	"Daugiztau" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Xatirchi tumani	"Angidon" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Xatirchi tumani	"Langar" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Uchquduq tumani	"Altintov" ovul fuqarolar yig'ini (OFY)
Uchquduq tumani	"Uzunquduq" ovul fuqarolar yig'ini (OFY)
Uchquduq tumani	"Bozdun" ovul fuqarolar yig'ini (OFY)
Uchquduq tumani	"Mingbuloq" ovul fuqarolar yig'ini (OFY)
Uchquduq tumani	Avangard ovuli ("Kukayaz" OFY tarkibida)
Uchquduq tumani	"Yangiturmush" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Uchquduq tumani	"Qadoq" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Uchquduq tumani	"Sentob" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Nurota tumani	"Temirg'ov" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Nurota tumani	"Qizilcha" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Nurota tumani	"Suvliq" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)

Konimex tumani	"Kattasoy" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Konimex tumani	"Sarjal" ovul fuqarolar yig'ini (OFY)
Konimex tumani	"Yangiqazg'an" qishloq fuqarolar yig'ini (QFY)
Konimex tumani	"Qarag'ata" qishloq fuqarolar yig'ini (QFY)
Konimex tumani	"Ushtobe" ovul fuqarolar yig'ini (OFY)
Konimex tumani	"Baymurat" ovul fuqarolar yig'ini (OFY)
Tomdi tumani	"Ayaquduq" ovul fuqarolar yig'ini (OFY)
Tomdi tumani	"Keregetov" ovul fuqarolar yig'ini (OFY)
Tomdi tumani	"Keriz" ovul fuqarolar yig'ini (OFY)
Tomdi tumani	"Suketti" ovul fuqarolar yig'ini (OFY)
Tomdi tumani	"Tomdibuloq" ovul fuqarolar yig'ini (OFY)
Tomdi tumani	"Shiyeli" ovul fuqarolar yig'ini (OFY)
<b>6. Namangan viloyati</b>	
Pop tumani	"Guliston" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Pop tumani	"Yuqori chodakboshi" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Pop tumani	"Qo'shminor" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Pop tumani	"Navbahor" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Pop tumani	Oltinkon shaharchasi (Yuqori chodakboshi va "Chodakboshi" MFY tarkibida)
<b>7. Samarqand viloyati</b>	
Kattaqo'rg'on tumani	"Bunyodkor" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Kattaqo'rg'on tumani	"Jizmonsoy" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Kattaqo'rg'on tumani	"Toz" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Kattaqo'rg'on tumani	"Yangi qishloq" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Kattaqo'rg'on tumani	"O'rta-soy" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Kattaqo'rg'on tumani	"Jonbuloq" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Qo'shrabot tumani	"Qo'shtamg'ali" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Qo'shrabot tumani	"Urganji" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Qo'shrabot tumani	"Qochobsoy" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Qo'shrabot tumani	"Minishkor" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Qo'shrabot tumani	Bog'ojat qishlog'i ("Toz" MFY tarkibida)
Qo'shrabot tumani	"Tepaqli" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Qo'shrabot tumani	"Saroy" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Qo'shrabot tumani	"Sazag'on" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Qo'shrabot tumani	"Omondara" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Qo'shrabot tumani	"Jom" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Nurobod tumani	"Sahoba" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Nurobod tumani	"Jarquduq" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Nurobod tumani	Sepki qishlog'i ("Buloqoboshi" MFY tarkibida)
Nurobod tumani	"Navbahor" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Nurobod tumani	"Ag'ron" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Nurobod tumani	"Arabota" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Nurobod tumani	"Bunyodkor" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Paxtach tumani	"Chashma" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Payariq tumani	"Nakurt" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
<b>8. Surxondaryo viloyati</b>	
Muzrabot tumani	"Chegarachi" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Muzrabot tumani	"Chorbog" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Sherobod tumani	"Vandob" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Sherobod tumani	"Uzansoy" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Termiz tumani	"Gulbahor" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Oltinsoy tumani	"Xo'jayipok" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Oltinsoy tumani	"Qizilnavr" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Oltinsoy tumani	"Xo'jayidod" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Oltinsoy tumani	Dehibolo mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Boysun tumani	"Obikor" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Boysun tumani	"Chilonzor" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Boysun tumani	"Munchoq" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Boysun tumani	"O'rmonchi" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Boysun tumani	"Xursand" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Boysun tumani	"Madaniy turmush" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Boysun tumani	"Tolto'g'ay" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Boysun tumani	"Bobotog" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Boysun tumani	"Yangibod" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Boysun tumani	"Xo'jaqulsin" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Boysun tumani	"O'rmonchi" mahalla fuqarolar yig'ini (QFY)
Boysun tumani	"Oqmachi" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Qumqo'rg'on tumani	"Tebat" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Sariosiy tumani	"Sangardak" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Sariosiy tumani	"Subhidam" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)



Denov tumani	"Ehtiroim" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Denov tumani	"Chosh" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Denov tumani	"Xonjiza" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Denov tumani	"Maland" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Denov tumani	"Karsh" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Denov tumani	"Chag'am" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Denov tumani	"Jiydabuloq" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Denov tumani	"Pojur" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Denov tumani	"Pahlavon" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Denov tumani	"Yoshlik" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Sho'rchi tumani	"Tamsush" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
<b>9. Sirdaryo viloyati</b>	
Mirzaobod tumani	"Yo'ldoshobod" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Mirzaobod tumani	"Baxoriston" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
<b>10. Toshkent viloyati</b>	
Bekobod tumani	"Nayman" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Bekobod tumani	"Uyas" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Bekobod tumani	"Achamayi" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Bekobod tumani	"Tolbuloq" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Angren shahri	"Fayzobod" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Angren shahri	"Oydim" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Ohangaron tumani	"Chinor" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Ohangaron tumani	"Chetsuv" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Ohangaron tumani	"Ko'ksaroy" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Ohangaron tumani	"Go'shsay" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Ohangaron tumani	"Bolodala" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Ohangaron tumani	"Alg'abas" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Ohangaron tumani	"Novobod" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Ohangaron tumani	"Yakka-tut" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Ohangaron tumani	"Burchmulla" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Ohangaron tumani	"Bog'iston" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Ohangaron tumani	"Nanay" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Ohangaron tumani	"Dadabayev" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Ohangaron tumani	"Uzun" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Ohangaron tumani	"Pskom" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
<b>11. Farg'ona viloyati</b>	
Farg'ona tumani	"Boy-mahalla" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Farg'ona tumani	"Yuqori Gulshan" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Farg'ona tumani	"Gulshan" qishloq fuqarolar yig'ini (QFY)
Farg'ona tumani	"Guzar" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Farg'ona tumani	"Dadabayev" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Farg'ona tumani	"Uzun" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Farg'ona tumani	"Pskom" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
<b>12. Xorazm viloyati</b>	
Qo'shko'pir tumani	"Arablar" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Pitnak shahri	Nukus q.a.p. (Hazorasp tumani "Nukus maskani" MFY tarkibida)
Pitnak shahri	Hazorasp tumani "Hazorasp" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
Pitnak shahri	Tuproqqal'a q.a.p. (Hazorasp tumani "Tuproqqal'a maskani" MFY tarkibida)

So'x tumani	"Langar" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
So'x tumani	"Qurilish" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
So'x tumani	"Yuqori Archa" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
So'x tumani	"Chimyon" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
So'x tumani	"Shifokor" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
So'x tumani	"Mindon" qishloq fuqarolar yig'ini (QFY)
So'x tumani	"Qo'riq" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
So'x tumani	"Farg'ona" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
So'x tumani	"Xonqiz" shaharcha fuqarolar yig'ini (ShFY)
So'x tumani	"Yangi yo'l" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
So'x tumani	"Maydon" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
So'x tumani	"Qo'rg'ontepa" shaharcha fuqarolar yig'ini (ShFY)
So'x tumani	"Istiqloq" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
So'x tumani	"Yangiariq" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
So'x tumani	"Sarikanda" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
So'x tumani	"Saribozorcha" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
So'x tumani	"Qal'a" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
So'x tumani	"Oftobru" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
So'x tumani	"Navobod" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
So'x tumani	"Mulgon" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
So'x tumani	"Chumoqcha" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
So'x tumani	"Guliston" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
So'x tumani	"Demursad" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
So'x tumani	"Chashma" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
So'x tumani	"Zangal" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
So'x tumani	"Qizilqiyoc" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
So'x tumani	"Tariq" qishlog'i ("Chashma" MFY tarkibida)
So'x tumani	"Hushyor" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
So'x tumani	"Sharqobod" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
So'x tumani	"Umabara" qishlog'i ("Devayron" MFY tarkibida)
So'x tumani	"Devayron" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
So'x tumani	"Lenbur" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
So'x tumani	"Tul" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
So'x tumani	"Qal'acha" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
So'x tumani	"G'aznob" mahalla fuqarolar yig'ini (MFY)
So'x tumani	"Sohibkor" qishloq fuqarolar yig'ini (QFY)



## Bobolar omonati

Til — millat g'ururi, uning o'zligini, ma'naviyatini namoyon etuvchi vosita. O'zbek xalqi ona tili davlat tili maqomini olishi uchun qancha mashaqqat chekkan, bu yo'lda qancha qurbonlik berilgan. "Beli og'rimaganning non yeyishini ko'r", deganlaridek ayrim yurtdoshlarimiz boy tilimizning mavqeyini tushirishga "intilyapti".

Atrofga nazar solsak, aksariyat joy nomlari ajnabiy tildagi so'zda ifodalangan. To'g'ri, iqtisodiyotda "brend" degan tushuncha keng ommalashgan va bunday taniqli belgilar o'z nomi bilan ataladi. Lekin bu holatdan yiroq va o'zbekcha muqobili bo'lgan so'zlar ham boshqa til-da yangrab, yemakxona, do'kon, maishiy xizmat ko'rsatish shox-obchalari peshtoqida manaman deb turibdi. Nega bunday?! O'zbek tili so'z boyligi kammi?! Eng ko'p so'zni Alisher Navoiy o'z asarlarida qo'llagan (26035 ta) va butun dunyoni lol qoldirgan. G'azal mulkingning sultoni ham chet tilidan so'z olishga mutlaq qarshi bo'lmagan. Faqat unga ehtiyoj sezilganda, ya'ni o'z tilimizda muqobili bo'lmaganda olish kerakligini aytib o'tgan.

Brend yaratish uchun bo'lsa, 80 000 dan ziyod so'zga ega izohli lug'atga, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Navoiy, Bobur va boshqa buyuk allomalarimizning kitoblariga yuzlanishimiz kerak. Bu kitoblarda o'zbek tilidagi ohorli so'zlar (tadbirkorlikdagi brend so'zlar ham) naq dafinadir. Faqat uni izlab topish kerak.

Bugun poytaxtimiz ko'chalarini aylanib yurgan chet ellik sayyohlar atrofga e'tibor bilan qarasa, O'zbekistonda yurganini his qilarmikan?

Til — ajdodlarimizning bizga qoldirgan omonati. U bizga qanday sof, tabiiy holatda yetib kelgan bo'lsa, kelajak avlodga ham shu holicha yetkazib berishimiz lozim.

Jahongir MARDONOV,  
O'zJOKU talabasi

## Sayyor qabulda murojaat tufayli fuqaroning ukasi doimiy ro'yxatga qo'yildi

Bugungi kunda inson huquqlarini himoya qilish sohasida adliya organlari tomonidan aholi murojaat va muammolarini o'rganib, imkon qadar ijobiy hal qilish maqsadida hududlarda sayyor qabullar tashkil qilinmoqda. Mas'ullar uyma-uy yurib, muammolarni o'rganish, ularni hal qilishga intilmoqda.

Prezidentimizning shu yil 17-yanvardagi "Aholi muammolari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni hamda Toshkent shahar adliya boshqarmasi, Davlat xizmatlari agentligi Toshkent shahar hududiy boshqarmasi va Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Toshkent shahar kengashi birgalikda qabul qilgan qo'shma ko'rsatma adliya organlarining fuqarolar murojaatlari bilan ishlash sohasidagi faoliyatining huquqiy asosini belgilab beradi.

Hududiy adliya organlari tomonidan mazkur farmon ijrosini to'laqonli ta'minlash maqsadida qat'iy jadval asosida har haftalik sayyor qabullar o'tkazilyapti. Murojaatlar bo'lim ish yurituviga qabul qilinib, muammoni hal qilish choralari ko'rib borilayotir.

Ana shunday sayyor qabullardan biri Mirobod tuman adliya bo'limi tomonidan "Yangi zamon" mahallasida tashkil qilinib, Eski Sarako'l ko'chasi, 144-uy, 1-xonadon manzilida yashovchi fuqaro Sh.Sinnikovaning murojaati bo'lim ish yurituviga qabul qilindi. Fuqaroning arizasi tuman adliya bo'limi tomonidan tez va batafsil o'rganilib, uning huquqlarini himoya qilish maqsadida tuman migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limiga murojaat bilan chiqildi. Natijada fuqaro Sh.Sinnikovaning ukasi Stanislav Sinnikov Mirobod tumani, Eski Sarako'l ko'chasi, 144-uy, 1-xonadonga doimiy ro'yxatga qo'yildi va fuqarolik biometrik pasportiga shu manzil rasmiylashtirildi.

Iroda XAYRULLAYEVA,  
Mirobod tuman adliya katta maslahatchisi

## Ta'limda diskriminatsiya

Diskriminatsiya — kamsitish, tahqirlash va huquqiy jihatdan teng ko'rmaslik, degan ma'noni anglatadi. Bu doim qoralangan va biz uni yomon deb o'rganganmiz. Ammo ta'lim sohasida diskriminatsiyadan o'rinli foydalanilsa, ijobiy natijaga olib keladi.

Ko'pgina o'qituvchilar o'zlari bilib-bilmay faoliyati davomida turli darajadagi diskriminatsiyaga yo'l qo'yadi. Masalan, dars davomida biror foydali o'yin o'tkazish orqali sinfdagi a'lochi va faol o'quvchilar uchungina yutish imkonini yaratib beradi. Yoki o'zlashtirishda qiynalayotgan biror o'quvchini kuchliroq o'quvchi bilan birga o'tirishga majburlaydi. Bu holatda eng to'g'ri usul jamoaviy musobaqa tashkilashtirish orqali turli qobiliyatli o'quvchilarga birdek imkoniyat taqdim etishdir. Shunda barcha imkoniyati darajasida g'oliblikka hissa qo'sha oladi.

Diskriminatsiyaning yana bir ko'rinishini maktab formasi masalasida ham uchratish mumkin. Albatta, forma talabi kattaroq diskriminatsiyaning oldini olishning eng yaxshi usuli bo'lishi mumkin, ammo buning ham salbiy tomonlari bor. Ba'zida o'quvchi boshqalardan ajralib turishni istaydi va buni, eng avvalo, tashqi ko'rinishidan boshlashga harakat qiladi. Bir xil talabdagi forma bilan o'quvchining erkinligi qisman bo'lsa-da to'siqa uchrach, keyinroq erkinlikka intilmay, bir xil qolipda yashashga ko'nika boshlaydi. E'tibor bersak, bugun bizda hamma sohada boshqalardan yaqqol ajralib turadigan yuvafakchilarni topish qiyin. Bir kishi muvaffaqiyatga erishdimi, hamma uning yo'lidan yursagina yutuqqa erishish mumkin degan xulosaga keladi.

Bunda ham, albatta, ta'lim tizimining "hissasi" katta. O'quvchi-yoshlarga tashqi ko'rinishda, imkoniyatlarda va bilim olishda ham hamma farqli ekanini, kimdir matematika va aniq fanlarni yaxshi o'zlashtirsa, boshqasi tasviriy san'at, xorijiy tillarni o'rganish, musiqa yoki sportga qobiliyati bilan ustunligini tushuntirish kerak. Mayli, forma masalasi maktabda birmuncha foydali bo'lishi mumkin, ammo akademik litsey, kasb-hunar kolleji va oliy ta'lim muassasalarida bundan voz kechish zarur. Hamma o'zi istaganicha uslub yaratsin, boshqalardan farqlanib turishni o'rgansin. Chunki tashqi ko'rinishdagi qoliqlar fikrlashdagi qoliqlarni keltirib chiqaradi.

Diskriminatsiyaning undan-da katta ko'rinishi imtiyozlardir. Ya'ni bir hududga taalluqli bo'lish yoki biror kasb egasining farzandi bo'lgani biror maktab bitiruvchisi, biror musobaqa g'olibi bo'lgani uchungina imtiyozga ega bo'lish mumkin. Imtiyoz xalqaro olimpiadalarda g'oliblariga berilsa o'rinni, albatta, ammo boshqa holatlarda.... Hatto nogiron shaxslarga ham imtiyoz berilayotganda shunchaki shu guruh talabgorlariga bir-birlari bilan raqobat qilish imkoni yaratilishi kerak. Ammo yaqqol ustunlik berib diskriminatsiyaga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Ravshan MATMUSAYEV




## Tabiiy fanlarda PISA

O'quv yili yakunida pedagoglarning o'z ustida ishlashi, o'quvchi savodxonligini xalqaro talablar darajasida baholash tizimi ahamiyatini hamkasblar davrasida tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Bu yangi o'quv yilidagi ta'lim sifati uchun bir qadamdir. Shayxontohur tumanidagi 34-umumta'lim maktabida PISA baholash tizimini tabiiy fanlarga tatbiq etish bo'yicha o'tkazilgan seminar ana shu maqsadga qaratildi. Tadbirda 399 nafar amaliyotchi o'qituvchi va fan metodisti qatnashib, 14 guruhda o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishdi.

— Ushbu tizim o'quvchilarning kreativ fikrlashini kuchaytirib, yanada puxta bilim olishiga ko'maklashadi, — deydi Yunusobod tumanidagi 273-umumta'lim maktabining geografiya fani o'qituvchisi Lola



Boltayeva. — Biz, o'qituvchilar bu tizim mohiyatini yaxshi anglab, xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rishga, o'quvchilar bilimini xalqaro baholash tizimi asosida baholashga tayyorlashga kirishdik.

Sh.BOYMURODOVA  
B.RIZOQULOV olgan surat.

Dunyo bizni yangidan tanimoqda

# Qodiriy, Cho'lpon va Fitrat asarlari olmonchada

O'zbekiston taraqqiyotidagi yangi davr mamlakat uchun g'oyat xayrli boshlandi. Yurtimizda kechayotgan ijobiy o'zgarishlar, aholi kayfiyatidagi ko'tarinkilik, dunyo bilan hamnafaslik va hamqadamlik turli jabhalarda o'zini namoyon qilmoqda. Jahonda o'zbek xalqi va uning madaniyatiga qiziqish kundan kun ortmoqda. Ushbu qiziqishlarning bir ko'rinishi milliy adabiyotimizga nisbatan, o'zbek tilidan o'zga tillarga, jumladan, olmon tiliga o'girmalarda ham namoyon bo'lmoqda.

Ma'lumki, Olmoniya universitetlarida turli yillari, ayniqsa, Ikkinchi jahon urushidan so'ng turli universitetlarda o'zbek tili va adabiyoti o'qitilayotganiga ancha bo'lgan. O'tgan asrning 60-yillari Berlinda o'zbek tili va adabiyotidan dars bergan Doris Shuls xonim va u yaratgan dastlabki nemischa-o'zbekcha lug'at olmonshunoslarga yaxshi tanish. Ayni paytda Berlindagi Humboldt nomidagi universitetda ham Markaziy Osiyo seminari doirasida o'zbek tili va adabiyoti bo'limi ishlab turibdi va unga professor Ingeborg Baldauf rahbarlik qilmoqda. Shu bo'limda asli tojikistonlik Barno Oripova ismli muallima ham ko'p yillardan buyon o'zbek hamda tojik tillari va adabiyotidan mashg'ulotlar olib boradi. O'tgan yili kuzda shu muallimaning nafaqaga chiqishi munosabati bilan **"Abdulla Qodiriy und seine Zeit"** (Abdulla Qodiriy va u yashagan davr) nomli Barno Oripovaga yubiley tuhfasida tayyorlangan tarjima va talqinlar to'plami nashrga tayyorlanib, 2018-yil oxirida Potsdamdagi **"Edition tethis"** nashriyotida chop etildi.

To'plamga O'zbekistonning "Do'stlik" ordeni sohibi professor Ingeborg Baldauf so'zboshi yozib, jumladan, shunday degan: "Ushbu risolaning asosida Barno Oripovaning sho'ro davri buyuk o'zbek adiblari, hammasidan avval Abdulla Qodiriyga moyilligi va qiziqishi mujassam. Ana shu e'tiqod va hayratni u hamkasb xonimlar va talabalarga yuqtirish istagida. Mabodo kimdir oldingi davr shoirlari, hikoyanavislari, dramaturglari va publitsistlari asarlari bilan tanishgan va xufiyona tarjima qilishga uringan bo'lsa, Barno opa shunday odamlarga o'zi qiziqqan o'sha dastlabki ijodkorlarni dam-badam eslatar va ularning u yoki bu asarini tarjima qilishga undar, yoki mavjud tarjimalar ustida yangitdan ishlashga da'vat etar edi. Mana endi Barno Oripovaning 2018-yili kuzda nafaqaga chiqishi bizga yakuniy

turtki berib, yillar davomida g'aladonlarimizni to'ldirib yotgan katta-kichik badiiy tarjima loyihalarimizni yakunlashga sabab bo'ldi. Barno opaning ko'p yillik akademik muallim sifatidagi lisoniy mehnati va hamkasbimiz sifatidagi faoliyati uchun minnatdorlik ramzi o'laroq bu yubiley nashrimizni jamlab, chop etishga tayyorladik. Chunki bulardan aksariyatining yuzaga kelishiga opaning tashabbusi va faol ishtiroki sabab bo'lgan. Bu loyihalar va tarjimalarni biz Abdulla Qodiriy va uning ayrim mashhur zamondoshlari hamda safdoshlari haqida o'qiganmiz, fikrlashganmiz va tarjima qilganmiz". Ushbu kirish so'zlaridan keyin Baldauf xonim o'zbek adabiyotining uch buyuk siyмосi hayoti va ijodi, bizga tanish va notanish katta-kichik asarlari haqidagi o'zining kuzatuv va xulosalarini, umumlashmalarini qayd etgan. Olimning qaydlarida shu paytgacha qilingan tarjimalarning nomlari ham aslyiatdagidek ifoda etilgan. Jumladan, sobiq GDRning Berlindagi "Kultur und Fortschritt" nashriyoti 1968-yili Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlari"ni "Die Liebenden von Taschkent", ya'ni "Toshkentlik oshiqlar" nomi bilan e'lon qilgan. Tarjima asarning ruscha variantidan olmonchaga o'girilgan. Olmoncha tarjimada asar mazmuni imkon qadar qayta tiklangan bo'lsa-da, unda ko'plab jiddiy va juz'iy uslubiy hamda transliteratsion xatolar bor. Aslyiatdagi milliy kolorit buzilgan holatlar nihoyatda ko'p. Bu nuqsонlarni o'z vaqtida tarjimashunos olimlar — G'aybulla Salomov, Sharif Ro'ziyev, Ra'no Fayzullayeva o'z tadqiqotlarida jiddiy lingvomadaniy tahlil orqali ko'rsatib o'tgan. Ruscha tarjima esa sobiq sho'ro senzurasini chig'irig'idan o'tgan o'zbekcha matndan ag'darilgan. Ana shu holatlar, ya'ni asarning mavjud olmoncha tarjimasi til osha va siyosat osha olmon kitobxoniga yetib kelganini aniqlab o'rganib chiqqan Barno Oripova asarning yangi tarjimasini tayyorlaganiga kamina guvohman. Bu qayta,

to'ldirilgan tarjima yaqin kelajakda dunyo ko'zini ko'rishiga, tarjimada asar nomi professor Baldauf so'zboshida yozgani va Barno Oripova qayta tarjima qilganidek, aslyiatdagi kabi "Die vergangenen Tage" nomi bilan chop etilishiga umid qilaman.

Endi bu tarjima kitob mundarijasiga ko'z yugurtirsak. Undagi dastlabki matn "Uloqda" (Abdulla Qodiriy) hikoyasining Anna-Luize Krayvanger o'g'irgan olmoncha tarjimasi bo'lib, unga Olaf Gyunterning "O'yindan so'ng degani undan oldingi o'yin degani" nomli ko'pkariga bag'ishlangan esdaliklari ilova qilingan. Muallif o'zi kuzatgan Ohangaron tumanida bo'lib o'tgan ko'pkari misolida Qodiriy asarini mazmunan to'ldirishga uringan. Qolaversa, ilovada muallifning yana bir esdaligi — Mozor aka degan lo'lining hayoti va uning uloqdagi qahramonligi bilan bog'liq xotiralari berilgan. Navbatdagi tarjima Abdurauf Fitrat qalamiga mansub "Manfaat" hikoyasi bo'lib, uni 1913-yili "Oyina" jurnali-

"Abdulla Qodiriy va u yashagan davr" kitobidan o'rin olgan asarlar qatorida Abdurauf Fitratning "Tirilish" nomli asari va uni tojik tilidan o'g'irgan Luts Rjejakning asar haqidagi maqolasi, Shokir Sulaymonning "Isyon xudolarga" asarining Ingeborg Baldauf o'g'irmasi, Mo'minjon Muhammadjon o'g'lining "Jasur yozuvchi" asari, A.Qodiriyning "Bizning maymunlar" hikoyasi (Ayfer Durdu tarjimasida), adibning "Obid ketmon" asaridan olingan "Ik-kilanish" bo'limining Barno Oripova rahbarligidagi jamoaviy tarjimalari ham bor. Endigi vazifamiz — shu yangi tarjimalar tajribasi va tarjimonlarning bevosita tarjima mahoratini ilmiy tadqiq etishdan iborat.

Yana kitob so'zboshisiga qaytamiz. Unda chop etilgan tarjimalar, maxsus izohlar va ilovalar, eng muhimi, asly matnlarga tanqidiy munosabatdagi maqolalar yonma-yon joylashtirilgan. Bunday tarjima nashri ayni paytda o'quv-didaktik vazifani ham bajaradi,

Dastlabki matn "Uloqda" (Abdulla Qodiriy) hikoyasining Anna-Luize Krayvanger o'g'irgan olmoncha tarjimasi bo'lib, unga Olaf Gyunterning "O'yindan so'ng degani undan oldingi o'yin degani" nomli ko'pkariga bag'ishlangan esdaliklari ilova qilingan. Muallif o'zi kuzatgan Ohangaron tumanida bo'lib o'tgan ko'pkari misolida Qodiriy asarini mazmunan to'ldirishga uringan.

da bosilgan forsiy matndan Tomas Loy olmonchaga o'g'irgan. Navbatdagi tarjima Fitrat Istanbulda yozgan "Hayot va uning mazmuni" nomli esse bo'lib, uni ham forschadan Tomas Loy olmonchaga ag'dargan. Bu tarjimalarga ilova tarzida tarjimonning "Abdurauf Fitrat va uning dastlabki nazariy tadqiqotlari" nomli maqolasi berilib, unda olim ijodining ayrim qirralariga munosabat bildirilgan. Keyingi tarjima Cho'lponning "Yorqinoy" dramasi bo'lib, undan oldin tarjimon Ingeborg Baldaufning tarjima haqidagi "Cho'lpon va uning ertakona "Yorqinoy" dramasi" nomli kirish so'zi berilgan. Uning izidan Abdulla Qodiriyning "Jinlar bazmi" asari tarjimasi (Aziz Merhan olmonchaga o'g'irgan asar va asl matni haqida Zigrid Klaynmixelning "Abdulla Qodiriy va Hamid Ismoil o'rtasida o'zbek adabiyotida jinlar mavzusi" nomli maqolasi keltirilgan. Maqolada yozilishicha, Abdulla Oripov ham bu mavzuga qo'l urib, haj safari taassurotlari ostida "Jinlar bazmi" nomli she'r yozgan. Kitobda shu she'rning asli va tarjimasi berilgan. Maqola muallifining nigohi shu mavzu doirasida Bahrom Ro'zimuhammadning ham shu ruhdagi she'riga tushgan.

yosh tarjimonlarni badiiy tarjima sirlariga qiyosiy chog'ishtirish orqali oson oshna qiloladi. So'zboshi Baldauf xonimning quyidagi so'zlari bilan yakun topgan:

"Ushbu kitobdan maqsadimiz tanlangan qisqa matnlar yoki ularning qismlarini olmoncha tarjimada taqdim etish, basharti bu matnlarning paydo bo'lish davri kontekstini aniqlash oson bo'lmagan taqdirda ularga izohlar berish orqali tarjimalarni o'qishli qilishdan iborat. Bu tarjimalar ayrimlari bevosita Barno Oripova ishtirokida amalga oshgan bo'lsa, boshqalariga u dalda va turtki bergan.

Suyukli Barno Oripova xonim, biz ushbu tarjima va izohlarga da'vat qilganingiz uchun Sizga rahmat aytamiz! Markaziy Osiyo seminaridagi ko'p yillik muallimlik va hamkasblik faoliyat-ingiz uchun minnatdorlik bildiramiz!"

Va albatta, biz o'zbek ziyolilari ham Barnoxon Oripovaga Berlindan turib o'zbek adabiyotiga ko'rsatgan e'tibori, uning tarjimalari va tashviqotiga baholi qudrat qo'shgan hissasi uchun tashakkur aytamiz!

Xurram RAHIMOV,  
professor

Sobiq GDRning Berlindagi "Kultur und Fortschritt" nashriyoti 1968-yili Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlari"ni "Die Liebenden von Taschkent", ya'ni "Toshkentlik oshiqlar" nomi bilan e'lon qilgan. Tarjima asarning ruscha variantidan olmonchaga o'girilgan.

# Siyosat, urush va adabiyot

## Cherchill hayotining mazmuni shu uch so'zda mujassam

Ser Uinston Leonard Spenser-Cherchill 1874-yilning 30-noyabrda Blenxeym saroyida Britaniyaning eng obro'li oilalaridan birida tug'ilgan. Otasi — lord Rendolf Genri Spenser Cherchill Malboro gersogining uchinchi o'g'li bo'lib, mohir siyosatchi, Konservatorlar partiyasining quyi palatasi deputati, davlat g'aznasi kansleri lavozimlarida ishlab, obro' orttirgan, onasi — Jenni Jerom esa amerikalik badavlat xonadonning qizi edi.

Ota-onasi aristokratlarga xos hayot kechirgani va ishlagani bois bo'lg'usi siyosatchining tarbiyasiga ko'p vaqt ajratilmasdi. Shu bois Uinstonni bir yoshligidan enagasi Elizabet Enn Everest katta qildi. Bu ko'ngli toza va beg'ubor ayol bolalarni jon-dilidan yaxshi ko'rar, mehri ni ayamasdi.

Cherchill 8 yoshidan Sent-Jorjdagi tayyorlov maktabiga bordi. Mazkur dargohda jismoniy jazo tartibi joriy etilgan bo'lib, Uinston ko'pincha intizomni buzar va o'ziga o'zi kaltak sotib olardi. Uning ayblarini yopish uchun yuraverib charchagan enaga oxiri toqati toq bo'lib, bolaning onasiga shikoyat qilgach, Jenni xonim o'g'lini Braytondagi maktabga ko'chiradi. Bu yerdagi muallimlarning qahri qattiq, didyasi qotgandi. Shundan keyingina Cherchill sho'xlikdan tiyildi.

1886-yili Uinston zotiljamga chalinib, sog'lig'ini yo'qotadi. O'g'lining bu ahvolda qat'iy intizomga asoslangan maktabda ta'lim olmasligini tushungan lord Rendolf rejasini o'zgartirishga majbur bo'ldi. Ya'ni, Uinstonni oqsuyaklar, xususan, malborolar tahsil olgan Iton kollejiga emas, balki o'rtamiyona ta'lim muassasalaridan biri — Xerrouga olib bordi. Muhimi, bu yerda tartib-intizomga u qadar e'tibor berilmasdi.

1889-yili bo'lg'usi siyosatchi umumta'lim fanlari kamroq o'qitilib, asosiy e'tibor harbiy faoliyat turiga qaratiladigan maxsus sinfga o'tkazildi. E'tiborlisi, Cherchill maktabni tamomlayotganda davlat imtihonlarini 12 nafar sinfdoshidan ko'ra yaxshiroq topshirib, hatto tarix fanidan eng yuqori ball oldi. Shuningdek, u Xerrouda qilichbozlik to'garagida qatnashib, 1892-yili maktab chempioni bo'ldi.

1893-yili Cherchill uchinchi urinishdan so'ng, nihoyat, Sandxerstdagi Qirollik harbiy bilim yurtiga eng past o'tish bali bilan qabul qilindi. O'qish jarayonida u ichki tanlovdan muvaffaqiyatli o'tib, suvoriy(kavaleriyachi) likdan biroq nufuzliroq hisoblangan piyoda qo'shin safiga o'tkazildi. Sandxerstda u 1893-1894-yillari ta'lim olib, maktabni a'lo baholarga tamomladi. Oradan bir yil o'tib esa Uinston Cherchill kichik leytenant bo'ldi. Ammo o'sha yili u uchun qat'g'uli kunlar ham bo'ldi: yanvarda etagi, iyulda peritonit bilan og'rikan sevimli enagasi vafot etdi.

1895-yili Jenni xonim arbob tanishlari yordamida o'g'lini Kubaga — mahalliy aholining ispan bosqinchilariga qarshi isyonni tafsilotlarini yoritishi uchun «Daily Graphic» gazetasi harbiy muxbiri sifatida yuborishga erishdi. Xufiyona kelishuvga ko'ra, ayni paytda Cherchillning harbiy

xizmati ham «davom etdi». Xizmat safari chog'ida u ilk bora ispan qo'shini bilan birga chinakam olov ichiga kirdi. Ana shu taassurotlar mahsuli o'laroq, 5 ta maqola yozildi, ularning ayrimlarini hatto «New York Times» ham ko'chirib bosdi. Cherchill ilk bitiklari uchun 25 giney qalam haqi oldi.

Ispan hukumati uning jasoratini yuksak baholab, «Qizil xoch» ordenini berdi. Bu unga Yevropa miqyosida ilk bor obro' keltirdi. Britaniya muxbirining xolislik tamoyiliga amal qilmagani bilan bog'liq shubhalar esa unutildi. Kuba sayohati uni mukofot va adabiy jarayondagi tanilishdan tashqari, ikkita odatga: Kuba sigarasi kechik va tushlikdan keyin hordiq chiqarish — siestaga ham o'rgatib qo'ydi. Darvoqe, u o'sha yili ilk bor AQSh tuprog'iga qadam bosdi.

1896-yil oktabr. Cherchill polki Hindistonga borib, Bangalordagi qarog'ohda joylashdi. Polkda polo bo'yicha terma jamoa yetakchisi bo'ldi. U qo'l ostidagilar tasavvurida yaxshi inson bo'lib gavgdalanishga tirishar, ayni paytda ofitserlik burchini vijdonan bajarishga intilib, ko'p vaqtini serjant va askarlar bilan o'tkazar, buning uchun yilda atigi ikki marta Angliyaga kelib, dam olishga ham rozi edi. Shuningdek, u Hindistonni, xususan, Kalkutta va Haydarobod shaharlarini kezdirdi.

1897-yilning kuzida u yana onasining ko'magida ekspeditsiya korpusi bilan birga safarga yuborildi. U tog'li Malakandda ingliz bosqinchilariga asir tushgan pushtunlar isyonini bostirish missiyasida harbiy muxbir bo'lib qatnashishi ko'zda tutilgandi. Ammo bu qirg'inbarot Kubadagiga qaraganda ancha shafqatsiz va xatarli bo'lib, unchamuncha muxbirning yuragi betlamasdi.

Galdagi maqola ham «Daily Telegraph» gazetasida bosilgach, Cherchillga ancha obro' keltirdi. Uning Malakandda yozgan maktublari to'planib, «Malakand dala korpusi tarixi» nomli kitob tayyorlandi. Qizig'i, 8500 nusxada bosilayotgan to'plam Cherchillni quvontirish o'rniga g'azablantirdi. Sababi, unda bir talay tipografik xatolar bor edi. Xususan, u o'z qo'li bilan 200 dan ortiq tuzatishlar kiritdi.

Malakanddan qaytgach, Cherchill Sudanda ro'y berayotgan isyonlarni yoritishga bordi. U yerda Mahdi qo'zg'olonlari alanga olgan, qon daryo bo'lib oqayotgandi. O'sha paytlarda isyonchilar son jihatidan, Ingliz-Misir armiyasi esa qurol-aslaha, taktik-texnik tayyorgarlik jihatidan ustun edi: ko'pziyadli o'qotar qurollari, artilleriya, qurollangan qayiqlar va o'sha davmning old qurollari — Maksim pulemyotlari bilan



ta'minlangandi. Cherchill Britaniya armiyasi kavaleriyasining Omdurman yaqinida bo'lgan asosiy jangdagi dahshatli hujumini o'z ko'zi bilan ko'rdi, harbiy jarayonda qatnashdi.

Cherchill o'z reportajida ingliz qo'shinini qattiq tanqid qildi. Xususan, general Kitchener mahkamasidagi bo'lg'usi hamkasblarining asirlar, yaralanganlarga shafqatsiz munosabati-yu mahalliy xalq qadriyatlarini oyoqosti qilayotganini qoraladi.

Sudan voqealari tugagach, Cherchill Hindistonga qaytib, polo bo'yicha umummilliy musobaqada qatnashdi. Musobaqa paytida Angliyaga borib, konservatorlarning bir necha mitingida chiqishga ham ulgurdi. Turnirda uning jamoasi g'olib bo'lgach, 1899-yilning mart oyida jamoadan ketdi. Cherchill o'sha vaqtda chor tarafga jasur jurnalist sifatida tanilgan, Sudan isyoniga bag'ishlangan «Daryodagi jang» (The River War) kitobi bestsellerga aylangandi.

1899-yilning yozida unga Oldemdan Konservatorlar partiyasiga saylovda o'z nomzodini ilgari surish taklif etildi. Biroq Cherchillning quyi palatadan joy olishga ilk urinishi omadsiz yakunlandi.

Kuzda Afrikaning janubi-sharqiy qismida joylashgan Bur (XVIII asrda oltin izlab kelib, o'troqlashib qolgan gollandlar tashkil qilgan hududlar) respublikalari bilan vaziyat keskinlashdi. Sentabrda Britaniya hukumati Transvaal hamda Zarg'aldoq Respublikalari rahbariyatiga oltin konlarida ishlayotgan musofir inglizlarga ham saylov huquqi berilishini talab qildi, ammo u rad etildi. Shundan so'ng britaniyaliklar urush boshladi.

Cherchill endi Janubiy Afrikadagi urushni yoritishga yo'l oldi. Noyabrda zirhlangan poyezdga chiqib, Malakandda tanishgan do'sti — kapitan Xoldeyn bilan tajriba-sinov reydigacha chiqdi. Burlar yarim yo'lda poyezdni ayovsiz o'qqa tutdi. Inglizlar bu hujumga ko'p dosh berolmasligini bilgach, poyezdni orqaga qaytarib, chekindi. Burlar esa relsga ulkan xarsanglarni yumalatib, poyezdning ikki vagonini izdan chiqardi. Inglizlarning tezkorlik bilan poyezdni yurgizib, jonini asrab qolishga urinishi besamar ketdi. Taxminan 50 nafar ingliz askari bilan qolgan kapitan Xoldeyn asir olindi, qochishga uringan Cherchillni ham otliq askarlar tutdi. Bandidlar Pretoriyadagi harbiy asirlar lageriga yuborildi.

Dekabrdan Cherchill lagerdan qochishga muvaffaq bo'ldi. Unga ergashgan Xoldeyn va serjant-mayor Brukini yarim yo'lda qo'lga tushdi. Cherchill ularni devor ortida uzoq kutdi, sheriklari kelavermagach, yolg'iz o'zi ko'ngli boshlagan tomon yugurdi. Qochoq o'z yurtiga qaytgach, Britaniya sudi uni safdoshlariga xiyonat qilganlikda aybladi. Biroq buni tasdiqlovchi dalillar «topilmagach», ayblov olib tashlandi.

Asirlar hayoti va tutqunlikdan qochishga bag'ishlangan maqolalari bilan Cherchill yanada mashhur bo'ldi. Oldxem saylovchilaridan quyi palataga yana nomzodini qo'yish taklifini oldi. Ammo u armiyadagi faoliyatini davom ettirishni, «Morning Post» nashrining maxsus muxbiri sifatida maqolalar yozishni, ko'plab janglarda qatnashishni ma'qul ko'rdi. Cherchill hatto Olmos tepaligi uchun kechgan jangda mardlik ko'rsatdi.

1900-yilning iyulida u Angliyaga qaytdi va siyosiy jarayonga kirishdi: Oldxem saylov uchastkasiga nomzodini kiritdi. Saylovoldi tadbirlarda shonshuhratini ishga solish va saylovchilar bilan samimiy muloqot o'rnatishdan tashqari, Oldxemda tug'ilib, obro' qozongan insonlar, xususan, muhandis Dyusnepni o'zi bilan birga olib yurdi. Bu besamar ketmadi — Uinston 222 ovoz bilan 26 yoshida quyi palata a'zosi bo'ldi. Baxtiga, saylovda konservatorlar palatasi ko'proq ovoz to'plab, hukmron partiya maqomini oldi.

Shu yili Uinston ijodidagi yagona ulkan asar — «Savrola» romani chop etildi. Ko'plab cherchillshunoslar va siyosatchining hayotini yaxshi bilgan zamondoshlarining aytishicha, badiiy asar bosh qahramoni Savrola — aslida muallifning quyi o'ygandek o'zginasi. Bu «kamtarin» Cherchillning o'zi haqidagi roman edi.

Cherchill 1901-yilning 18-fevralida quyi palatada ilk bora Janubiy Afrikada harbiy harakatlar tugab, tartib o'rnatilgan haqida nutq irod etdi. U hukumat va harbiylarni yengilgan burlarga insoniy munosabatda bo'lishga, «burlar o'z mag'lubiyatiga ko'nikib olishlari uchun yordam berish»ga chaqirdi.

13-mayda u kutilmaganda, mudofaa vazirining armiyaga sarf-xarajatlarni oshirishga urinayotganini keskin tanqid qildi. Bu holat birgina harbiy mansabdorlar emas, balki konservatorlar partiyasi qarashlariga ham zid edi. Cherchill esa o'z fikrlarini allaqachon qo'ozga tushirib, oldinroq «Morning Post» nashriga yetkazib qo'ygandi. Yosh parlamentarning o'z partiyasi bilan ziddiyati shu bilan tugamadi. 1902-1903-yillari Cherchill erkin savdo bilan bog'liq ayrim holatlar (bug'doy importi boji)ga va mustamlaka siyosatiga qarshi chiqdi. Shu tariqa u 1904-yilning may oyida liberallar partiyasiga o'tib ketdi.

Zohidjon O'LOV tayyorladi.

(Davomi keyingi sonda.)

**Raxmonov Norim Razzakovichning 08.00.12 — Mintaqaviy iqtisodiyot va 08-00-05** — Xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlari iqtisodiyoti ixtisosliklari bo'yicha "Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish asosida oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish" mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.30.05.2018.I.01.11 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 20-iyun kuni soat 14:30 daqiqlasida bo'lib o'tadi.  
Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.  
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21; e-mail: nauka@nuu.uz

**Sattarov Alijon Bozorboboyevichning 05.01.05 — Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari.** Axborot xavfsizligi ixtisosligi bo'yicha "GOST 28147-89 algoritmi bardoshlilikini chiziqli-differensial va algebraik kriptotahsil usullari yordamida baholash va bardoshlilik yuqori bo'lgan shifr yaratish" mavzusidagi (fizika-matematika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.FM.01.02 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 14-iyun kuni soat 10:00 daqiqlasida bo'lib o'tadi.  
Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.  
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21; e-mail: nauka@nuu.uz

**Mamadjanova Tuyg'unoy Ahmadjanovnaning 08.00.11 — Marketing ixtisosligi bo'yicha** "Meva-sabzavot mahsulotlari eksportini rivojlantirishning marketing strategiyasini takomillashtirish" mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 21-iyun kuni soat 14:00 daqiqlasida bo'lib o'tadi.  
Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.  
Tel/faks: (71) 239-28-72, 239-43-51; e-mail: tdiu@tdiu.uz


**Yusupov Sheraral Xasanovichning 14.00.14 — Onkologiya ixtisosligi bo'yicha** «Tarqalgan prostata bezi saratonini davolashda zamonaviy yondashuvlar» mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04.12.2018.Tib.77.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 20-iyun kuni soat 14:00 daqiqlasida bo'lib o'tadi.  
Manzil: 100174, Toshkent shahri, Forobiy ko'chasi, 383-uy. Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, majlislar zali.  
Tel/faks: (71) 227-13-27, 246-15-96; e-mail: info@ronc.uz

**Karimov Raxmatillo Chorievichning 05.05.02 — Elektrotexnika.** Elektr energiya stansiyalari, tizimlari. Elektrotexnik majmualar va uskunalar ixtisosligi bo'yicha «Kontaktsiz kommutatsiyalovchi qurilmalar asosida elektr energiya sifatini oshirish» mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti va «Ilmiy-texnika markazi» mas'uliyati cheklangan jamiyati huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.T.03.03 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 15-iyun kuni soat 10:00 daqiqlasida bo'lib o'tadi.  
Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy.  
Tel/faks: (71) 246-46-00, 227-10-32; e-mail: tstu\_info@tdtu.uz

**Taslimov Abduraxim Dexkanovichning 05.05.02 — Elektrotexnika.** Elektr energiya stansiyalari, tizimlari. Elektrotexnik majmualar va qurilmalar ixtisosligi bo'yicha «Noaniqlik sharoitida shahar taqsimlovchi elektr tarmoqlari parametrlarini tanlash uslubiyoti» mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat texnika universiteti va «Ilmiy-texnika markazi» mas'uliyati cheklangan jamiyati huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.T.03.03 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 15-iyun kuni soat 14:00 daqiqlasida bo'lib o'tadi.  
Manzil: 100095, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 2-uy.  
Tel/faks: (71) 246-46-00, 227-10-32; e-mail: tstu\_info@tdtu.uz

**Ruziyev Shohruxbek Ravshan o'g'lining 08.00.05 — Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti ixtisosligi bo'yicha** «O'zbekistonda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish» mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.I.18.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 15-iyun kuni soat 11:00 daqiqlasida bo'lib o'tadi.  
Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti. Tel/faks: (66) 233-19-84; e-mail: sies\_info@edu.uz.

**Kurbanova Raxima Jamshedovnaning 08.00.05 — Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti ixtisosligi bo'yicha** «Servis korxonalarini modernizatsiyalash va ularda xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish (Samarqand viloyati umumiy ovqatlanish korxonalarini misolida)» mavzusidagi (iqtisodiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.I.18.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 15-iyun kuni soat 13:30 daqiqlasida bo'lib o'tadi.  
Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 9-uy. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti. Tel/faks: (66) 233-19-84; e-mail: sies\_info@edu.uz.



## 2019-2020-o'quv yilida o'quv qurollari xarid qilish bo'yicha tender savdolarining lotlar bo'yicha g'olib va zaxira g'olibi deb topilgan korxonalar va tashkilotlar ro'yxati

P/n	G'olib va zaxira g'olib deb topilgan korxonalar va tashkilotlarning nomi	Korxonalar va tashkilotlarning yuridik manzili
1	2	3
<b>1-LOT DAFTAR (12 varaqli)</b>		
G'olib		
1	«O'zbekiston» NMIU	Toshkent sh., Navoiy ko'chasi, 30-uy
Zaxira g'olib		
1	«Sano Standart» MChJ	Toshkent sh., Shiroq ko'chasi, 100-uy
<b>2-LOT AKVAREL BO'YOG'I (12 rangli)</b>		
G'olib		
1	«Agrolife Innovation» MChJ	Toshkent sh., Oqqo'rg'on ko'chasi, 21-uy
Zaxira g'olib		
1	«Oziq Ovqat Savdo» MChJ	Toshkent sh., Yangibozor ko'chasi, 1-uy
<b>3-LOT PLASTILIN (8 rangli)</b>		
G'olib		
1	ChP «SIGNUM»	Toshkent sh., Avliyoota ko'chasi, 7-uy
Zaxira g'olib		
1	«Alfa Plast Invest» MChJ	Toshkent sh., Yangibozor ko'chasi, 1-uy
<b>4-LOT RANGLI QALAMLAR (12 rangli)</b>		
G'olib		
1	«Agrolife Innovation» MChJ	Toshkent sh., Oqqo'rg'on ko'chasi, 21-uy
Zaxira g'olib		
1	«Oziq Ovqat Savdo» MChJ	Toshkent sh., Yangibozor ko'chasi, 1-uy
<b>5-LOT ODDIY QORA QALAM</b>		
G'olib		
1	ChP «Deli Torg»	Toshkent sh., Avliyoota ko'chasi, 11-uy
Zaxira g'olib		
1	«Headway Business Group» MChJ	Toshkent sh., Nukus ko'chasi, 83-"A" uy
<b>6-LOT QALAMDON</b>		
G'olib		

1	«Macro Office» MChJ	Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Eshonguzar qo'rg'oni
Zaxira g'olib		
1	«Private Perfect Project» MChJ	Toshkent sh., Oltintepa ko'chasi, 186-uy
<b>7-LOT RASM DAFTARI</b>		
G'olib		
1	«Odil Parer» MChJ	Toshkent sh., Sergeli tumani, Choshtepa mahallasi, 379-"A" uy
Zaxira g'olib		
1	«Sano Standart» MChJ	Toshkent sh., Shiroq ko'chasi, 100-uy
<b>8-LOT RANGLI QOQ'OZLAR TO'PLAMI</b>		
G'olib		
1	«Sano Standart» MChJ	Toshkent sh., Shiroq ko'chasi, 100-uy
Zaxira g'olib		
1	«Taraqqiyot Print» MChJ	Toshkent sh., Bunyodkor ko'chasi, 27-uy
<b>10-LOT O'CHIRG'ICH</b>		
G'olib		
1	ChP «Deli Torg»	Toshkent sh., Avliyoota ko'chasi, 11-uy
Zaxira g'olib		
1	«Headway Business Group» MChJ	Toshkent sh., Nukus ko'chasi, 83-"A" uy
<b>11-LOT YELIM-QALAM</b>		
G'olib		
1	ChP «Deli Torg»	Toshkent sh., Avliyoota ko'chasi, 11-uy
Zaxira g'olib		
1	«Aysel Sanoat Savdo» MChJ	Namangan sh., I.Karimov ko'chasi, 20-uy
<b>12-LOT O'QUVCHILAR SUMKASI</b>		
G'olib		
1	«Intent Software» MChJ — 320 427 dona	Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Eshonguzar qo'rg'oni, TKAD
2	«Universal Safety Goods» MChJ — 320 427 dona	Toshkent sh., Nukus ko'chasi, 83-"A" uy
Zaxira g'olib		
mavjud emas		

Sinfidosh dugonam Norsuluvning otasini Shukur pochtachi deyishardi. Shukur tog'aning bir oyog'i nogiron bo'lib, qishin-yozin Shalpanquloq laqabli eshagiga katta xurjun osib olar, xurjunning ikki tomoni ham gazeta va jurnallarga liq to'la bo'lardi. U O'lmas, Ko'kota, Xo'jaqo'rg'on, Toshko'prik, Bashandog' qishloqlariga gazeta-jurnal tarqatar, eng so'ngida esa o'zi yashaydigan qishloqqa, ya'ni bizning Yangisaroyga kelardi. U har bir xonadon oldida to'xtar, eshagidan tushmay, temir uchli hassasi bilan darvozalarni taqillatib "Gazeta-jurnal keldi", derdi.

Menga uning ovozi "Baxt-u omad keldi" degandek eshitalardi. Shukur pochtachi gazetalarini hech qachon yerga tashlab ketmagan. "Tuproq va loyga qorishmasin, uvul bo'ladi", — derdi. Men esa pochtaaching yuqimli ovozini uzoqdan eshitib, darvozamiz oldiga yugurib chiqib "Assalomu alaykum, Shukur tog'a! Shalpanquloq, senga ham salom", — der edim. "G'uncha", "Gulxan", "Saodat", "Guliston", "Sharq yulduzi", "Fan va turmush", "Mushtum" jurnallari va barcha gazetalariga otam atigi bitta qo'yni sotib, har yili obuna bo'lar edi.

Ba'zan otam Shukur pochtachini ko'rib: "Rahmat Shukur aka, bizning gazeta va jurnallarni o'z vaqtida olib kelganingiz uchun", — desalar, pochtachi "Bu — xizmat burchim, Mardonbek, shuning orqasidan bola-chaqa boqamiz", — der edi. "Topganingiz to'ylarga buyursin", — derdi otam. "Zulpi qizingizni ko'rmasa, manavi Shalpanquloq ham darvozingiz oldida tormoz berib turib qoladi", — derdi kulib Shukur tog'a.

Go'yo Shukur tog'a bilan qishloqlarga quvonch, baxt kirib kelar edi. U keksalarga nafaqa puli tarqatar, har oying oxirida qora g'ilofli chiroyli sumkada enamga ham nafaqa berar, enam imzo chekayotib, iymani: "Biz, bekorchilarga ham davlat pul beradi-ya, Shukurjon", — desalar, "Sanavar yanga, bu — mehnatlarining mevasi. Oh, oh, sizlar qilgan qora mehnat uchun bu pullar ham kam", — deb qo'yar edi. Enam siyosatga qiziqqan kampir bo'lgani uchun ba'zan Shukur tog'a eshagidan tushib, darvozamiz yonidagi yog'och o'rindiqda o'tirib, siyosatdan, gohida odamgarchilik fazilatlaridan gaplashib qolar edi. Shunday suhbatlardan birida enam bilan Shukur pochtachi onglilik va ongsizlik, gazetxonlik va o'qimaslik haqida gaplashib qoldi:

— Sanavar yanga, men mana shu xizmatim yuzasidan bir narsaga ishonim. Maqtanyapti demang-u, men ko'tarib yurgan gazeta-jurnallarning orasiga baraka yashiringanga o'xshaydi.

— Qanday bildingiz, Shukurjon?

— Qaysi xonadonga gazeta-jurnal ko'p tushsa, o'sha uyda ahillik, qut-baraka bor. Qaysi xonadonga gazeta-jur-

# Uyg'oq xotiralar

(uchinchi maqola)

nal kam kirs, o'sha joyda ahvol uncha durust emas. Ishonasizmi, men darvozasi oldida to'xtamaydigan uylarda har kuni janjal, bexosiyat gaplar. Nazarimda, ularga kambag'allikning nuqsi urib ketganday.

— Yo'g'ay, aylanay sizdan, gazeta-jurnal kirmaydigan uylar ham bormi?

— Bor, yanga, bor. Masalan, Xoliqulboy. Otdan tortib tuyagacha — shunda, ammo uyi notinch. Kelini ketib qolgan, bechora nevaralar o'rtada sarson. Bu oila hech qanday gazeta olmaydi. Pulni qizg'anadi. Rahim nosfurosh har kuni gazeta olardi. Bir kuni qarasam, gazetalariga nos o'rab sotiyapti. "Hoy, Rahimbek, buni gazeta deydinglar, nosni maxsus mallarang qog'ozga o'rab sotting! Ana o'shanda ko'rasiz qut-barakani", — deb, sizning shoir Zulpi nevarangizning "Gazetani qilsang xor, nonga bo'lasan zor" degan she'rini ham qo'shib qo'ydim. Maqtanyapti demang-u, oradan bir oy o'tib, Rahim nosfurosh menga: "Hah, Shukurjon, shu gazetani xor qilgan, nonga zor bo'ladi" degan gapdi oldinroq aytmaysizmi? Jo'rajon, barakasini beryapti", — desa bo'ladimi? Ilgari faqat "Mushtum" olar edi. Endi xotinini ham "Saodat"ga obuna qildi... Yaqinda "Sharq yulduzi" jurnali sabab sal qoldi bitta kelin baxtidan ayrilib qolishiga.

— Shunaqasi ham bo'ladimi, Shukurvoy?

— Qo'shni Xo'jaqo'rg'onida Tojiqlug'altir o'g'lini toshko'priklik Ochil qasobning qiziga uylantiruvdi. Tojiqlug'altir aka ham xuddi sizlardek har yili oq surpaga solib, ustiga yilini yozib "Sharq yulduzi"ni maxsus yig'ib borar ekan. Ochil qasobdi qizi sho'rva pishiraman deb, "Sharq yulduzi"ning varaqlarini yirtib, o'choqqa tutantirib qilibdi. Varag'i yirtilgan "Sharq yulduzi"ning oshxonada xor bo'lib yotganini ko'rib Tojiqlug'altir aka o'g'li Jabbor ko'xtir hali to'rt oylik yangi kelinning tugunini qo'lga berib, otasini kigiga haydab yuboribdi. Kechqurun ishdan kelgan bug'altir ham o'g'luga "To'g'ri qilibsan. Menga gazeta-jurnal yoqadigan kelin kerakmas. Orqasidan yalinib borma!" debdi. Mahalla aralashsa ham kelinni qabul qilishmadi. Meni maqtanyapti demang-u, bir kuni oldimga Ochil qasob kelib: "Shukurjon, o'sha "Sharq yulduzi" degan jurnaldi falon sonidan bittagina topib ber", — deb yalinib turib oldi. Men esa: "Hay, qiziqmaysiz, Ochil aka, "Sharq yulduzi" juda noyob jurnal. Unga obuna bo'lganlar

har oy kutib turadi. Ro'yxat orqali tarqataman. Obunachilar-yil boshida pulini to'lab qo'ygan, birortasiga tarqatmasam, javobgar bo'laman", — dedim. Siz umringizda "Sharq yulduzi" olmagan bo'lsangiz, qizingiz ham o'qimagan bo'lsa, Jabbor do'xtirlar oilasi ma'rifatli odamlar bo'lsa, to'g'ri kelmagan-da", — desam, "Voy, siz ham eshitingizmi qizim "Sharq yulduzi"ning varag'ini yoqqani uchun kuyov haydab yuborganini?" deydi. "Ey, bu voqeani butun Narpay eshitti", — dedim. Maqtanyapti demang-u, Ochil qasob rosa yalindi, topib bering shu jurnaldan, deb.

— Nima qildingiz? Kimning jurnalin olib berdingiz?

— Yangi oila, yosh kelin bo'lsa, o'rtaga sovuqchilik tushmasin, deb o'zimizning jurnalimning o'sha sonini Ochil qasobga berdim. Qizini mahalla oqsoqollari bosh bo'lib, "Sharq yulduzi"ni tuguniga tugib olib borib, kechirim so'rab, qudalar bilan yarashib kelibdi. "Sharq yulduzi" bahonayi sabab bo'lib, Ochil qasob hozir gazeta-jurnallarga obuna bo'lgan.

— O'qiyaptimi yoki go'sht o'rab sotiyaptimi?

— Yo'q, yanga. Bizda hech kim gazetaga go'sht o'ramaydi.

— Unday bo'lsa, yaxshi.

— Maqtanyapti demang-u, hozir ma'rifatli oilalar biror joyga sovcilikka borishdan oldin yo'lda meni to'xtatib: "Falon oila qanday gazeta-jurnallar oladi, qizi qanday jurnallarni o'qiydi?" deb so'rayapti. Men ham to'g'risini aytaman.

— Ma'rifatli oilalar, albatta, kitob, gazeta-jurnal o'qiydi, o'qiydi, Shukurboy.

Keksa enam va pochtachi o'rtasidagi suhbatlarning oxiri dunyodagi siyosiy holat-u, ob-havoning oqimi bilan tugaydi.

\*\*\*

Men uchun hayot akademiyasi maktabdan boshlangan. O'quvchi ekanimdayoq sinfdoshlarim va maktabdoshlarim taqdiri orqali qismatning toshli, tikanli so'qmoqlarini ko'rdim.

O'quvchilik davrimda onamdan ayrildim. Yuragim yulini, o'sha lahza-danoq bolalikning podsholigi meni tark etdi. Men yarim yetim edim. Taqdir sindirgan qanotlarimni erkin yozmog'im uchun bir umr kerak bo'ldi.

Men bu xotiralarni nega zozyapman?

Bugun har bir maktabda psixolog shtati mavjud. Shu kasb egalarining

hammasi ham o'z o'rnidamikan? Ularga ba'zi savollarim bor: ruhiyatida o'zgarish paydo bo'lgan o'smirlarning oilaviy sharoiti bilan tanishmisiz? Bolalar orasida yuzi, ko'zi ko'karib kelgan o'quvchining murg'ak qalbiga yo'l topa olyapsizmi? Goho a'zoyi badani momataloq bo'lib, uyida ichkilikboz otasi, goho besabr, sirkasi suv ko'tarmaydigan, jizzaki onasidan tinimsiz dakk eshitadigan, goh otasidan, ayrim hollarida, hatto onasi tomonidan kaltaklanadigan o'quvchining do'stiga aylana oldingizmi? Sirdoshi bo'lodingizmi? Uning g'ururiga tegmaydigan gaplar ayta oldingizmi? Uning tilini topdingizmi? Men bolaning ruhiyatini sindiradigan o'qituvchilar borligi haqida ham eshiddim. O'quvchini kamsitadigan, haqorat qiladigan pedagogning tegirmoniga qachongacha suv quyamiz? O'quvchiga ota-onasining mansab-u boyligiga qarab munosabat, muomala qiladigan o'qituvchiga nima deymiz? Siz bola ruhining bog'boni bo'lodingizmi? Meva bermaydigan shoxchalarni olib tashlayman deb, daraxtning hosildor noydlarini loqaydlik va bilimsizlik arralari bilan beshafqat qirqmadingizmi?!

O'smir, o'smir, deymiz. U o'tish davrida o'zgarib qoldi, deymiz. Ha, o'zgaradi. Endi u go'dak emas. Uning tasavvuridagi go'zal dunyo atrofidagi ayrim toshbag'irlar tufayli barbod bo'ldi. Uning murg'ak tushunchasidagi shirin ertaklar tugab bormoqda. U ulg'aymoqda. Hayotning asl qiyofasini ko'rmokda. Goho odamlardan ko'ra jonivorlar mehribonroq ekaniga hayron. Yoshi kattalarning barchasi yaxshi odamlar, degan xayolini o'smirlik davri chippakka chiqardi. U bu adolatsizlik bilan kelisholmaydi. Bunga moslasholmaydi. Shu bois asabiy bo'lib qoladi.

Men katta bo'lgan muhit musaffo, o'qituvchilarim, sinfdoshlarim nihoyatda olijanob bo'lgan ekan, deb o'ylab qolaman goho.

Muhtaram o'qituvchi, o'quvchi sizdan qo'rqsa, uyidagi ahvolni aytib, kulishingizdan yoki ko'pchilik oldida kamsitishingizdan xavotirga tushsa, bilingki, bu olamda uning do'sti qolmaydi. O'quvchi og'ir ruhiy holatda yurganida, maktabda yana kamsitilsa, oqibati nima bo'lishini bilasizmi? Ming afsuski, ayrim holatlarda bu tushunmovchiliklar, yolg'izliklar fojia bilan tugamoqda. Xalq ta'limi vaziri Sherzod Shermatov "O'quvchiga qo'l ko'taradigan, uni kamsitadigan, haqoratlaydigan o'qituvchiga safimizda o'rin yo'q!" dedi. Adolatli qaror bu.

Mehrli, sabrli, qanoatli, oqibatli bo'laylik, azizlar!

Zulfiya MO'MINOVA,  
shoira

Uning murg'ak tushunchasidagi shirin ertaklar tugab bormoqda. U ulg'aymoqda. Hayotning asl qiyofasini ko'rmokda. Goho odamlardan ko'ra jonivorlar mehribonroq ekaniga hayron. Yoshi kattalarning barchasi yaxshi odamlar, degan xayolini o'smirlik davri chippakka chiqardi. U bu adolatsizlik bilan kelisholmaydi. Bunga moslasholmaydi. Shu bois asabiy bo'lib qoladi.

Mutasaddilar diqqatiga!

## Bekobodagi maktab sport zali qachon ta'mirlanadi?

Uyimizga kelgan qarindoshimiz farzandining bo'yi ancha cho'zilib, katta bo'lib qolibdi. Ko'rinishidan tog'ni ura tolqon qiladigandek. Balki anchadan buyon uni ko'rmaganimgami ulg'aygandek tuyuldi menga. Xullas, uni gapga soldim: o'qishlari haqida so'radim.

— O'qishlarim yaxshi, o'rtamiyona, to'rt-besh degandek...

— Ha, yaxshi. Menimcha, jismoniy tarbiyadan aniq "besh" bo'lsa kerak-a?

Bu savolga berilgan javob meni o'yantirib qo'ydi.

U o'qiyotgan Bekobod tumanidagi 5-maktabda sport zali ishlamas, jismoniy tarbiya darsi ochiq sport maydonchasida, qishda esa sinfonalarda o'tilar ekan. Ochiq sport maydonchasidagi darslarni tushunish mumkin, lekin sinfonada jismoniy tarbiya mashg'ulotlari o'tilishini hazm qilish ancha mushkul. Qarindoshim hali necha bahoga o'qishini aytib ulgurmagam bo'lsa ham angladimki, bunday vaziyatda "besh" baho o'tishi "tayin"!

Xo'sh, nima uchun maktabning sport zali mavjud bo'lsa ham ishlamaydi, ya'ni uning Davlat sanitariya nazorati xodimlari tomonidan yopib ketilishiga sabab nima? Bu voqea sakkiz oy bo'lsa-da, nima uchun mas'ullarning parvoyi palak?

### Birinchi qadam

5-maktab ikki smenali bo'lgani bois u yerdan o'qituvchi va o'quvchilarning qadami hali uzilmagan, shu sabablimi, maktab direktori Gulnora Qo'shmatovani topish muammo bo'lmadi. U suhbatimiz davomida o'quvchisining gaplarini tasdiqlab, haqiqatan ham maktabning sport zali sakkiz oydan beri ishlamayotganini, uni SES xodimlari yopib ketganini ma'lum qildi. Shundan so'ng men maktabning sport zalini ko'zdan kechirdim va uning chindan ham foydalanishga yaroqsiz ekaniga guvoh bo'ldim.

2006-yili maktabning bir qismida qurilish ishlari amalga oshirilgan. Sport zali ham shu paytda qad rostlab, maktab o'quvchilariga 9 yilga yaqin xizmat qilgan.

— Bunday kam xizmat muddatining asosiy sabablaridan

biri bino bog' o'rni qurilganidir, — deydi Gulnora Qo'shmatova. — Uning yeri yumshoq bo'lgani uchun og'ir beton va devorlar namlik oshishi sabab cho'kkan.

2015-yilga kelib, devorlar yana ham pastga cho'kib, bir-biridan ajray boshlagan. Yog'ingarchilik sabab haddan oshiq nurab, foydalanish uchun xavfli holatga kelib qolgan. Lekin shunga qaramay, to'rt yil davomida sport zalidan qish mavsumidagi darslarni o'tish uchun foydalanilgan.

Maktabda 455 nafar o'quvchi ikki smenada ta'lim olar, to'rt nafar jismoniy tarbiya o'qituvchisi haftasiga 45 soat dars o'tar ekan. Bu — har kuni kamida olti yoki yetti soat jismoniy tarbiya mashg'uloti bo'ladi, degani.

Bu ma'lumotlardan keyin bizda bir nechta savollar paydo bo'ldi: xo'sh, nima uchun to'rt yil mobaynida o'quvchilar hayoti uchun xavfli bo'lgan sport zalida dars o'tilgan? Hozir nima sababdan darslar qoniqarli darajada bo'lmayapti? Bu haqida maktab ma'muriyati tegishli joylarga xabar qilganmi? Mutasaddilar-chi, muammoni bartaraf etish choralarini ko'ryaptimi?

### Bahonani oshirishmi yoki kasalni yashirish?!

Direktorning aytishicha, uch yildan buyon maktab ma'muriyati tegishli joylarga murojaat qilib keladi. Mutasaddilar sport zalining holatini o'rganib, uni qayta ta'mirlashga va'da bergan. Lekin uning bajarilishi orqaga surilavergan.

Direktor gap orasida mart oyida tuman hokimi kelib, maktab ma'muriyatiga qanday yordam kerakligini so'ragani, ular esa sport zali muammosini aytishganini ma'lum qildi. Mutasaddilar mahalliy budget mablag'lari hisobidan sport zali qayta ta'mirlab berilishini bildirgan. Bu gaplar maktab direktorining sport zali masalasida haligacha tuman xalq ta'limi bo'limiga rasmiy xat bilan murojaat qilmaganidan darak bermaydimi? Vaholanki, zal yopilganiga sakkiz oy bo'lgan.

### Masala hal-u, ish chigal

Poytaxtga qaytgach, olgan ma'lumot-u to'plagan faktlarimni ko'zdan kechirib, ularni o'rgana boshladim.

Oradan hech qancha vaqt o'tmay, "Telegram" orqali direktor Gulnora Qo'shmatovadan xat keldi. Unda yozishicha, muammo hal bo'lgan. Tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri direktor yuborgan rasmiy xatni darhol qabul qilib, maktab sport zalini mahalliy budget hisobidan ta'mirlab berish uchun "Yo'l xaritasi"ga kirgizibdi.

Bu xabarning qanchalik to'g'riligini bilish maqsadida, "Yo'l xaritasi"dan nusxa yuborishini so'radim. So'ragan kunim shanbaligini ro'kach qilib, direktor hujjatni dushanba kuni yuborishi mumkinligini aytdi. Dushanba kuni kechga yaqin "Yo'l xaritasi" qo'limda edi. Ko'zim tushgan birinchi joy moliyalashtirish manbasi bo'ldi. Mana shu ma'lumotning o'zi qanday qilib ikki kun ichida sport zali muammosi hal bo'ldi, degan gumonimning to'g'riligini isbotladi. Yuqorida Gulnora Qo'shmatova sport zali mahalliy budget hisobidan ta'mirlanarkan, degan edi. "Yo'l xaritasi"dagi moliyalashtirish manbasi sifatida Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi keltirilgan. Xo'sh, bu ma'lumotlarning qay biri to'g'ri? Vaholanki, jamg'arma 2017-yili o'z faoliyatini to'xtatgan bo'lib, uning o'rni Jismoniy tarbiya va sport vazirligi qoshidagi jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish jamg'armasi tashkil etilgan va uning bugungi kundagi vakolatiga umumta'lim maktablari sport zallarini qurish, qayta qurish hamda ta'mirlash ishlari kirmaydi.

Bu savollarga javob olish uchun Xalq ta'limi vazirligining axborot xizmati bilan bog'landik. Bir necha kunlik tekshiruvlar natijasida ma'lum bo'ldiki, haqiqatan ham "Yo'l xaritasi"da 5-umumta'lim maktabi sport zalining ta'mirlanishi uchun mablag' ajratilgan. Faqat bu Xalq ta'limi vazirligi tomonidan 2019-yilning boshida bir yillik "Yo'l xaritasi"ni tasdiqlash jarayonida amalga oshirilgan. Vaziyat yana ham chigallashdi. 2019-yilning boshida Xalq ta'limi vazirligi tomonidan Bekobod tumanidagi 5-maktabning sport zalini ta'mirlashga 1 mlrd 200 ming so'm ajratiladi-yu, nahotki uni tuman xalq ta'lim bo'limi mudiri, maktab direktori, hattoki tuman hokimi bilmasa?! Yoki bu yerda boshqa gap bormi? Ya'ni "Yo'l xaritasi"ga ta'mirlash ishlari muddati sitatida 2019-2020-yillar belgilangani uchun mutasaddilar 2020-yilni yoki joriy yilning yoz mavsumini kutishyaptimi? Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ajratilgan pul hozir qaysi hisobraqamda turibdi? Nima uchun mablag' bo'lsa ham ta'mirlash ishlari boshlanmagan, bunga arziqli sabab bormi?

Maqolada keltirilgan holat yuzasidan mutasaddilardan munosabat kutib qolamiz va masala ijobiy hal qilinadi, degan umiddamiz.

Sarvinov BAHODIROVA,  
O'zDJTU talabasi

reklama●e'lon●reklama●e'lon●reklama●e'lon●reklama●e'lon

## Ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internati 2019-2020-o'quv yili uchun tanlov asosida o'quvchilar qabulini e'lon qiladi

Ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internatiga 2019-2020-o'quv yili uchun 7-sinf o'quvchilari tanlov asosida matematika ta'lim yo'nalishiga 30 nafar, ingliz tili ta'lim yo'nalishiga 30 nafar o'quvchilar Davlat test markazi tomonidan test sinovlari asosida qabul qilinadi.


Hujjatlarni topshirish muddati 2019-yil 15-iyundan 15-iyulgacha.

**Murojaat uchun manzil:**

Toshkent viloyati,  
Angren shahri, 48-daha,  
1-"B" uy.

**Telefon raqamlari:**  
(99) 401-85-00, (94) 366-25-12, (99) 817-24-91.

**Muhtaram ota-onalar!**  
Shoshiling, qabul kunlariga yaqin qoldi.



**Jalolova Pokiza Muzaffarovnaning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (fizika) ixtisosligi bo'yicha "Oliy ta'limda «Atom fizikasiga oid laboratoriya mashg'ulotlarida axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish» mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28.12.2017.Ped.01.09 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 25-iyun kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.

Tel/faks: (71) 227-16-65, 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

**Kaxxarov Alisher Jamoliddinovichning 14.00.14 — Onkologiya ixtisosligi bo'yicha «Sut bezi saratonni tashxisini qo'yish va davolashning klinik-morfologik va molekulyar-genetik jihatlari» mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04.12.2018.Tib.77.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 20-iyun kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Forobiy ko'chasi, 383-uy. Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, majlislar zali.

Tel/faks: (71) 227-13-27, 246-15-96; e-mail: info@ronc.uz

**Xamroyeva Yulduz Abdurashidovnaning 14.00.08 — Oftalmologiya ixtisosligi bo'yicha «Tug'ma glaukoma tashxisotini va jarrohlik davosini takomillashtirish» mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat stomatologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.28.12.2017.Tib.59.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 27-iyun kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 103-uy.

Tel/faks: (71) 230-20-65, 230-47-99; e-mail: tdsi2016@mail.ru

Toshkent viloyati Piskent tumanidagi 13-umumta'lim maktabi tomonidan 2001-yil 16-iyunda Norbo'tayeva (Abduraxmonova) Manzura Bekmuradovna nomiga berilgan 18/6 O'R-A №1139994 raqamli ATTESTAT yo'qolganligi bois

**BEKOR QILINADI.**

Fan olimpiadasi — 2019

# Test topshirmay talaba bo'lishdi



Burhon RIZOQULOV olgan suratlar.

8—11-iyun kunlari Toshkent qurilish va milliy hunarmandchilik kasb-hunar kollejida akademik litsey, kasb-hunar kolleji va umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida umumta'lim fanlari bo'yicha respublika olimpiadasining yakuniy bosqichi bo'lib o'tdi.

Kecha olimpiada g'oliblariga diplom va oliy ta'lim muassasalariga test sinovlari va qo'shimcha imtihonlarsiz kirish imtiyozini beruvchi guvohnomalar topshirilishiga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi.

Bellashuvda 1059 nafar o'quvchi ishtirok etdi.



Sinov jarayonining haqqoniy va shaffofligini ta'minlash maqsadida hakamlar hay'ati va apellyatsiya komissiyasi tarkibi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, Xalq ta'limi vazirligi mutasaddilari hamda oliy ta'lim muassasalari rektorlari takliflari asosida Davlat test markazi, Fanlar akademiyasi institutlari, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari, umumta'lim maktablari professor-o'qituvchilaridan shakllantirildi.

Bellashuv yakuniga ko'ra, 18 ta fandan 53 nafar o'quvchi (20 nafar 1-o'rin, 18 nafar 2-o'rin va 15 nafar 3-o'rin) g'olib deb topildi. Umumjamo'a hisobida Toshkent shahri 11 ta sovrinli o'rin bilan 1-, Navoiy viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi 5 tadan o'rin bilan 2-, Andijon, Namangan, Sirdaryo va Surxondaryo viloyatlari 4 tadan o'rin bilan 3-o'rinni egallashga muvaffaq bo'ldi.

Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida bo'lib o'tgan taqdirlash marosimi g'oliblar va ularning ustozlari ishtirokida ko'tarinki kayfiyatda tashkil etildi. Kitob tumanidagi 1-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot o'qituvchisi Dilnoza Berdiyeva "Yil o'qituvchisi — 2017" ko'rik-tanlovida respublika g'olibi bo'lgan edi. Bugun uning o'quvchisi Dilnoza No'monova respublika fan olimpiadasida ona tili va adabiyot fanidan 2-o'ringa munosib deb topildi.

— Fan olimpiadasida g'olib bo'lish oson ish emas, — deydi Dilnoza Berdiyeva. — O'quvchim bilan buning uchun har kuni darsdan keyin astoydil shug'ullandik. U juda ko'p badiiy adabiyotlar o'qidi, o'z ustida ishladi. Bugun niyatiga yetganidan, g'oliblar safidan joy egallaganidan behad xursandman.

— Ustozlarim, ota-onam ishonchini oqlaganimdan xursandman, — deydi O'zMU S.Sirojiddinov nomidagi akademik litseyi bitiruvchisi Otabek Hasanov. — 93,5 ball bilan 1-o'rinni egalladim. Moskva fizika-texnika universitetiga ham onlayn tarzda imtihon topshirib, o'qishga qabul qilindim. O'qishni o'sha yerda



davom ettirishni rejalashtiryapman. Yurtimiz ravnaqiga hissa qo'shuvchi yetuk mutaxassis bo'lishni o'z oldimga maqsad qilganman.

Tadbirda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining birinchi o'rinbosari Murodilla Xolmuhamedov, Xalq ta'limi vazirining birinchi o'rinbosari Alisher Umarov ishtirok etib, olimpiada sovrindorlariga ulkan zafarlar tiladi.

Eslatib o'tamiz, fan olimpiadasida 1-, 2-, 3-o'rinni egallagan g'olib o'quvchilar Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 10-oktabrdagi 226-sonli qaroriga muvofiq tegishli fan yo'nalishida oliy o'quv yurtiga kirishda imtiyozga ega bo'ladi.

Zirola MADATOVA,  
"Ma'rifat" muxbiri

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan. Indeks: 149, 150. V-3491. Tiraji 15468. Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan, qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabuxona — (71) 233-50-55;  
kotiyyat — (71) 233-99-15;  
reklama va marketing bo'limi —  
(71) 233-42-92 (faks), (71) 236-54-17.

ISSN 2010-6416



"Ma'rifat" dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy. Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov. Navbatchi muharrir: Nazokat Xolmetova. Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. Korxonalar manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

O'ZA yakuni — 21.30 Topshirildi — 23.35

1 2 3 4 5 6

TA'GIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,  
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,  
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.